

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc/03/29.12.2022/Ss/Tar.21.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**MADAMINOVA DURDONA ISKANDAROVNA**

**YAQIN SHARQDAGI MIGRATSION JARAYONLARNING  
ARAB DAVLATLARI XAVFSIZLIGI VA BARQARORLIGIGA  
TA’SIRI**

**23.00.02 – “Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar”**

**Siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**UO‘K: 314.7**

**BBK: 664(5)**

**M-13**

**Doktorlik dissertatsiyasi (DSc) avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской диссертации (DSc)**

**Content of the Doctoral dissertation (DSc)**

**Madaminova Durdoni Iskandarovna**

Yaqin Sharqdagi migratsion jarayonlarning arab davlatlari xavfsizligi va barqarorligiga ta'siri ..... 3

**Мадаминава Дурдона Искандаровна**

Влияние миграционных процессов на безопасность и стабильность арабских стран Ближнего Востока ..... 29

**Madaminova Durdoni Iskandarovna**

The impact of migration processes in the Middle East on the security and stability of Arab countries ..... 57

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 61

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc/03/29.12.2022/Ss/Tar.21.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**MADAMINOVA DURDONA ISKANDAROVNA**

**YAQIN SHARQDAGI MIGRATSION JARAYONLARNING**  
**ARAB DAVLATLARI XAVFSIZLIGI VA BARQARORLIGIGA**  
**TA’SIRI**

**23.00.02 – “Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar”**

**Siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.DSc/Ss32 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tsuos.uz](http://www.tsuos.uz)) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:** **Yovqochev Shuhrat Akmalevich**  
siyosiy fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Mavrulov Abduhalil Abdulxayevich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Muhammadsidiqov Muhammadolim Muhammadroziq o'g'li**  
siyosiy fanlar doktori, professor

**Jalilov Aktam Tashnazarovich**  
siyosiy fanlar doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc.03/29.12.2022.Ss/Tar.21.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023 - yil «\_\_» \_\_\_\_\_soat \_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-34-24; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: [sharq\\_ilmiy@mail.ru](mailto:sharq_ilmiy@mail.ru)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 - yil «\_\_» \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.

(2023 - yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_-raqamli reyestr bayonnomasi).

**D.B. Sayfullayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
tarix fanlari doktori, professor

**O.I. Alimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa  
doktori (PhD)

**E.S. Sultonova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar  
doktori, professor

## KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda globallashtirish jarayonining chuqurlashuvi hamda milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatlarning bir-biri bilan bogʻlanishidagi murakkabliklar migratsion jarayonlarning oʻziga xos xususiyatlari, jumladan migratsiyaning oʻsish surʼatlariga sezilarli darajada taʼsiri oshib borayotganligini koʻrsatmoqda. “Migratsiya – ijobiy global hodisa. Migratsiya jarayonlari iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantiradi, tengsizlikni kamaytiradi, jamiyatning turli qismlarini oʻzaro bogʻlaydi, aholi oʻsishi va pasayishining demografik toʻlqinlarini yengib oʻtishga yordam beradi. Shuningdek, bu hodisa siyosiy tendensiyalar va insoniyat fojiasining ham mahsulidir”<sup>1</sup>. Alohida taʼkidlash kerakki, Yaqin Sharq arab davlatlaridagi migratsion jarayonlar oʻziga xos tarzda mintaqaviy xavfsizlikning salbiy omili sifatida ham namoyon boʻlmoqda. Bu oʻrinda, Yaqin Sharq arab davlatlari xavfsizligi va barqarorligiga qaratilgan migratsiya sekyuritizatsiyasi masalasiga alohida eʼtibor qaratishni dolzarb vazifalardan biriga aylantirmoqda.

Yaqin Sharqdagi migratsion oqimlar mintaqaviy mansublik doirasidan chiqib, global darajada, jumladan Yevropaning tadrijiy taraqqiyotidagi oʻziga xos ishtiroki mintaqqa uchun ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotning ajralmas qismi sifatida namoyon boʻlishiga oid tadqiqotlarga ustuvor darajada eʼtibor qaratilmoqda. Bu borada migratsiya masalalarini fanlararo yondashuv asosida kompleks tarzda aholi-mehnat migratsiyasi va taʼlim migratsiyasi kabi tarmoqlar qatorida xavfsizlik migratsiyasi, raqamli migratsiya, iqlim migratsiyasi va turizm migratsiyasi hamda Yaqin Sharq arab davlatlaridagi migratsion jarayonlarni davlatlararo, tashkilotlararo va sohalararo yondashuvlarning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy mavzulardagi tadqiqotlarga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Yangi Oʻzbekistonni barpo qilish jarayonida migratsion oqimlarni tartibli va ilmiy asosda milliy strategik taraqqiyotdan kelib chiqqan holda yoʻlga qoʻyish, ilgʻor jahon tajribasini eʼtiborga olgan holda, migratsiya amaliyotini samarali tashkil etish, Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT) aʼzosi sifatida xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qoʻllab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish kabilar yuzasidan keng qamrovli, dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Ushbu vazifalar, avvalo, mehnat migrantlari muammosini hal etish, barcha davlat tashkilotlari, mutasaddilari, fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan Oʻzbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim, bugungi kun va kelajak nuqtai nazaridan oʻz yechimini kutayotgan asosiy masalalaridan biri sifatida qaralmogʻi lozim”<sup>2</sup>. Mazkur vazifalar mintaqaviy migratsion jarayonlar va ularning mintaqqa davlatlari xavfsizligi va barqarorligiga taʼsirini oʻrganishda tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi

<sup>1</sup> Migration ‘Positive Global Phenomenon’ that Powers Economic Growth, Reduces Inequalities, Says Secretary-General at Report Launch | UN Press. <https://press.un.org/en/2018/sgsm18852.doc.htm>

<sup>2</sup> Mirziyoev Sh.M. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. –Toshkent: Oʻzbekiston nashriyoti, 2021. – B.450.

to'g'risida" farmoni (83-maqсад), 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 13-bandini, 2020-yil 15-sentyabrdagi PQ-4829-sonli "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil-martdagi PQ-149-son "Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

### **Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>3</sup>.**

Bugungi kunda Yaqin Sharq mintaqasidagi migratsion jarayonlarning sabablari va oqibatlari bo'yicha dunyoning yetakchi ilmiy markazlari, dastur va loyihalar faoliyat ko'satmoqda. Jumladan, BMTning ixtisoslashgan organi sifatida faoliyat yurituvchi Xalqaro migratsiya tashkiloti (The International Organization for Migration (IOM)), shuningdek, Immigratsion tadqiqotlar markazi (Center for Immigration Studies), Nyu-Yorkning migratsion tadqiqotlar markazi (Center for Migration Studies of New York), Migratsion siyosat instituti (Migration Policy Institute), Immigratsion siyosat instituti (The Immigration Policy Center – IPC), Xalqaro migratsiya markazi (The Global Migration Centre – GMC), The Center for Middle Eastern Studies (ORSAM), Yaqin Sharq tadqiqotlari markazi (The Middle East Institute – MEI), "Maddad" ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar markazi ("Maddad" – Markaz lilabhas vad dirasaat) hamda Al-Ahram siyosiy va strategik tadqiqotlar markazi (Al-Ahram Center for Political and Strategic Studies - ACPSS) kabi yetakchi ilmiy markazlar tomonidan migratsion jarayonlarni o'rganish borasidagi tadqiqotlar olib borilmoqda.

Hozirgi davrda Yaqin Sharq mintaqasidagi migratsion jarayonlarning yuzaga kelish sabablari, xususiyatlari hamda ularning arab davlatlari xavfsizligi va barqarorligiga ta'siriga oid tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalar olingan: Yaqin Sharqdagi migratsiya muammosi mintaqaning etnik, diniy, energetik va ekologik xavfsizlik masalalari bilan uzviy bog'liq ekanligi dalillangan (Yaqin Sharq tadqiqotlari markazi, AQSh); arab davlatlari xavfsizligi va barqarorligiga migratsiya

---

<sup>3</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <http://rcit.su/inform-cn-mz-03.html>; <http://rcit.su/inform-cn-mz-01.html>; <http://rcit.su/inform-cn-mz-00.html>; <http://rcit.su/inform-cn-mz-04.html>; <http://rcit.su/inform-cn-mz-05.html>; <https://review.uz/post/kitayskiy-vektor-uzbekskoy-ekonomiki>; <https://www.centraleurasia.org>; <https://www.csis.org/regions/russia-and-eurasia/central-asia>; <https://www.auca.kg/>; <http://www.cccar.hu/>; <https://erccs.hypotheses.org/>; <https://www.rug.nl/research/eastasianstudies>; <https://www.icsin.org/universities/>; [https://www.aichi-u.ac.jp/english/education/rc\\_iccs](https://www.aichi-u.ac.jp/english/education/rc_iccs); <http://chinesestudies.eu/?p=95>; <https://www.sydney.edu.au/china-studies-centre/>; <https://hjas.org>; <https://journals.univie.ac.at/index.php/jeacs/about>; <https://journals.sagepub.com/toc/mex/current>; <https://www.cambridge.org/core/journals/china-quarterly> va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan..

omilining tahdid va xatar sifatida baholanishi, unga nisbatan imkoniyatlar manbai sifatida qarash yondashuvini ishlab chiqish zarurligi asoslantirilgan (Al-Ahram siyosiy va strategik tadqiqotlar markazi, Misr); Yevropa va Yaqin Sharq arab davlatlari o'rtasida mehnat migratsiyasi, ta'lim migratsiyasi va turizm migratsiyasi masalalarini huquqiy tartibga solish, mintaqalararo xavfsizlik va barqaror muhitni institutsional tarzda shakllantirish zarurati asoslangan ("Aziya i Afrika segodnya" jurnali, Rossiya).

Yaqin Sharqda migratsiya jarayonlarini tartibga solish uchun mintaqadagi qurolli nizolarni preventiv diplomatiya vositasida hal etishga intilish, mavjud nizo markazlariga halqaro hamjamiyat e'tiborini qaratishni talab etadi. Markaziy Osiyo, xususan O'zbekistonda migratsion jarayonlarning milliy-mintaqaviy xavfsizlikka ta'siri muammolarini Yaqin Sharq Arab davlatlari tajribasi asosida hal etish bo'yicha "Markaziy Osiyo migratsiya hamjamiyati"ni tashkil etishni taqozo etadi. Shunga ko'ra, davlatlarning xavfsiz va barqaror rivojiga ta'siri nuqtai nazaridan, migratsion oqimlarni boshqarish borasidagi O'zbekiston va Yaqin Sharq davlatlari tajribalarini umumlashtirish, kerakli xulosa, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish masalasi nazariy ahamiyat kasb etadi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekistonni barqaror va izchil rivojlantirish, migratsiya jarayonlariga oid konseptual va strategik g'oyalari tadqiqotning ilmiy-metodologik asosini tashkil etadi<sup>4</sup>.

Migratsiya jarayonlarining milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka ta'siri, shuningdek, mazkur jarayonlarni tartibga solish borasidagi jahon tajribasi mahalliy olimlar tomonidan mustaqil tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Globallashuv sharoitida, Yaqin Sharq mintaqasida migratsion jarayonlarning jadal tus olishi va uning arab davlatlari xavfsizligiga ta'siri bilan bog'liq bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni quyidagi guruhlariga ajratib, tahlil qilish mumkin.

*Birinchi guruhga* arab tadqiqotchilarining<sup>5</sup> globallashuv sharoitida migratsiya omilining tobora dolzarb ahamiyat kasb etib borishi, uning kelib chiqish sabablari, Yaqin Sharq davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga bo'lgan ta'siriga bag'ishlangan tadqiqot ishlarini kiritish mumkin. Jumladan, Alvan Ibtisam Xatem va Ayya Abdusalom kabilarning tadqiqotlarida Arab dunyosidagi voqe'liklar misolida xalqaro migratsiya omili, uning asosiy ko'rinish va shakllari o'rganilgan. Fors Ko'rfazi arab davlatlariga intilish bilan bog'liq ichki migratsiya, shuningdek, G'arbga intilish bilan bog'liq tashqi migratsiya masalalari Majid Az-Zamiliy, Pol Salim, Farhatiy Amr kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. "Arab bahori" voqealarining migratsion jarayonlarning faollashuviga bo'lgan ta'siri va bu borada davlatlar tomonidan yuritilayotgan siyosat xususida Ansaif Muhammad, Ahmad Xadur, Isxoq Divan,

---

<sup>4</sup> Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 48 b.; Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.; Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.; Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 592 b.; Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.

<sup>5</sup> Ushbu tadqiqotlar dissertasiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

Milani Kamit, Ali al-Ahmad, Odil As-Saftiy kabi arab olimlarining asarlarida faktik va tahliliy ma'lumotlar keltirilgan.

*Ikkinchi guruhga* globallashuv sharoitida tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotgan milliy, mintaqaviy va global xavfsizlik muammolari va ularning migratsion jarayonlar bilan o'zaro aloqadorligi, Yaqin Sharq davlatlarida yuzaga kelgan migratsion inqirozning Yevropa davlatlari taraqqiyotiga ta'siri yuzasidan ilgari surilgan G'arb olimlarining qarashlarini kiritish mumkin. Xususan, M.Aatola, A.Acharya, J.Burton, B.Buzan, P.Gautam, A.Giddens, J.Laura va O.Vayever kabi olimlar tomonidan xavfsizlik muammolari, ularning nazariy asoslari hamda insoniyatga xavf solayotgan yangi tahdidlar ko'lami xususida fikr yuritilgan. Migratsiya muammosining xavfsizlik, xususan sotsiyetal xavfsizlik bilan o'zaro aloqadorligi, inson huquqlarining ta'minlanganlik holati, muhojirlarni qabul qiluvchi davlatlarda identifikatsiya va chegaralar daxlsizligini ta'minlash muammosi S.Angenendt, I.Atak, F.Krepo, V.Bello, D.Bigo, M.Braun, B.Byuzan, T.Feyst, J.Goldenzel, M.Xeysler, J.Xyusmans, A.Kiscinjer, C.Rudolf, A.Tonri, A.Ullax, G.Vernez va O.Vayverkabi olimlar<sup>6</sup>ning asarlarida batafsil yoritilgan.

*Uchinchi guruh* tadqiqotlari doirasiga Yaqin Sharq va MDH davlatlari misolida migratsion jarayonlarning kechishi, ularning arablararo munosabatlarga ta'siri, Yaqin Sharq davlatlarida kechayotgan migratsion jarayonlarning Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy ravnaqi va xavfsizlikni ta'minlash jarayoniga ta'siri hamda mazkur davlatlar tomonidan yuritilayotgan migratsiya siyosatining o'ziga xos jihatlariga bag'ishlangan MDH davlatlari tadqiqotchi olimlarining asarlari kiritilgan. I.Aleshkovskiy, A.Aksenyonok, G.Barisheva, A.Vavilov, A.Vasileva, A.Dmitriyev, K.Dudarev, A.Egorin, I.Zvyagelskaya, N.Zotova, L.Isayev, V.Kazanin, O.Kalashnikov, V.Konstantinov, G.Kosach, L.Kulagina, S.Krivov, V.Lelekov, N.Medushevskiy, I.Melixov, G.Monusova, V.Mukomel, S.Mutiyeva, T.Naumenko, V.Naumkin, M.Olimov, V.Proxoda, G.Pyaduxov, A.Rameyeva, S.Ryazansev, L.Ribakovskiy, N.Safarova, S.Starkin, B.Sultanov, L.Fituni, O.Chikrizova, A.Sharsheeva<sup>7</sup> kabi olimlarning ilmiy ishlarida migratsion jarayonlarning mohiyati, ularning Yaqin Sharq, Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlarida kechayotgan integratsion jarayonlarga ta'siri hamda migratsion jarayonlarni tartibga solish yuzasidan yuritilayotgan davlat siyosatining mohiyati ochib berilgan.

*To'rtinchi guruhni* Arab davlatlarida kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, davlatlar siyosiy tizimining shakllanishida "islom omili"ning tutgan o'rni, mazkur davlatlarda kechayotgan migratsion jarayonlar va ularning O'zbekiston ravnaqiga ta'siri, davlatimiz tomonidan migratsion jarayonlarni tartibga solish borasida yuritilayotgan siyosatning ahamiyatini ochib berishga bag'ishlangan A.Abdisattorov, D.Amirova, B.Babadjanov, Sh.Yovqochev, D.Muydinov, M.Muhammadsidiqov, Z.Munavvarov, S.Safoyev kabi mahalliy olimlarning tadqiqot ishlari tashkil etadi. N.Abdullayev, S.Akobirov, I.Boboqulov, S.Bo'ronov, T.Jo'rayev, F.Karimov, A.Kasimov, M.Nuritdinov, M.Rajabova, R.Samarov, O.Sirojov, A.Tulepov, X.Umarov va Sh.G'oyibnazarovlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi misolida

---

<sup>6</sup>Ushbu tadqiqotlar dissertasiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

<sup>7</sup>Ushbu tadqiqotlar dissertasiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

xavfsizlikni ta'minlash muammolari, Yaqin Sharq davlatlari va Afg'onistondagi beqaror vaziyat zahirida migratsiya muammosi alohida o'rin tutishi faktik ma'lumotlarga tayangan holda, asoslab berilgan. Yaqin Sharqdagi migratsion jarayonlarning Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligi va barqarorligiga ta'siri nuqtai nazaridan o'rganishda Y.Abdullayev, O.Ata-Mirzayev, L.Maksakova, D.Rasulova, N.Umarova, B.Umurzakov, Z.Qodirova kabi olimlar<sup>8</sup>ning bandlik va mehnat munosabatlari, xususan, mehnat migratsiyasiga bag'ishlangan asarlaridan foydalanildi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy ishlar doirasida migratsion jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan nazariy va amaliy yo'nalishda muayyan natijalarga erishilgan. Biroq, mazkur olimlarning ishlarida Yaqin Sharq mintaqasi arab davlatlari misolida migratsion jarayonlarning xavfsizlik va barqarorlikka ta'siri masalasiga kompleks tarzda yondashilmagan. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur masalani kompleks tarzda yondashgan holda, tadqiq etishni o'z oldimizga maqsad qilganmiz.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Sharq mamlakatlarida kechayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning xalqaro munosabatlarga ta'siri" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Yaqin Sharq mintaqasidagi migratsion jarayonlarning mintaqadagi arab davlatlari xavfsizligi va barqarorligiga ta'sirini tizimli tarzda ochib berish hamda yaqin istiqboldagi xavfsizlik arxitekturasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardir:

migratsiya tushunchasining nazariy asoslari va tasnifi, migratsiya jarayonlarini tadqiq etishning institutsional asoslarini aniqlash;

migratsiya va xavfsizlik kategoriyalari o'zaro aloqadorligining nazariy-konseptual tahlilini o'tkazish;

Yaqin Sharq mintaqasida migratsiya jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi omillar hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

migratsiya jarayonlarining Yaqin Sharq davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga ta'sirini dalillash;

Yaqin Sharqdagi zamonaviy geosiyosiy jarayonlarning mintaqadagi migratsion vaziyatga ta'sirini ochib berish;

Yaqin Sharqdagi nizoli markazlarda migratsiya muammosi va uning mintaqaviy xavfsizlikka ta'sirini ko'rsatib berish;

arab davlatlarining migratsion jarayonlarni tartibga solish borasidagi siyosati xususiyatlarining qiyosiy tahlilini o'tkazish;

Yaqin Sharqdagi migratsiya muammosini tartibga solishda mintaqa arab davlatlari o'zaro hamkorligining bugungi holatini ko'rsatish;

Yaqin Sharqda migratsiya muammosi va Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligining o'zaro aloqadorlik xususiyatlarini aniqlash.

---

<sup>8</sup> Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Yaqin Sharq mintaqasidagi migratsion jarayonlar va ular bilan bog‘liq muammolar belgilangan.

**Tadqiqotning predmetini** Yaqin Sharqdagi migratsion jarayonlar, ularning Yaqin Sharq arab davlatlari xavfsizligi va barqarorligiga ta‘siri hamda migratsiya muammolarining yechimiga doir masalalar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy tahlil, davrlashtirish, tizimlashtirish, taqqoslash, kuzatish, SWOT, kontent va ivalent-tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Yaqin Sharq arab davlatlari mintaqaviy xususiyatiga ko‘ra migratsion jarayonlarning «donor davlat - migrant - tranzit davlat - retsepiyent davlat» formati doirasidagi milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka etno-diniy va iqtisodiy-siyosiy jihatdan ijobiy ta‘siri Yaqin Sharq arab davlatlarining yaqin istiqboldagi xavfsizlik arxitekturasiga ko‘ra isbotlangan;

Yaqin Sharq arab davlatlaridagi migratsion oqimlar geografiyasi kengayishining mavjud va istiqboldagi tendensiyalariga ko‘ra «migratsiya omili» xavfsizlik masalalari bilan birgalikda ustuvor o‘ringa ko‘tarilishi Yevropaga konfliktogen ta‘sir ko‘rsatishning siyosiy instrumentiga aylanib borayotganligi asoslangan;

Fors ko‘rfazi arab davlatlaridagi migratsion oqimlarni tartibga solish, ularning milliy qonunchiligini xalqaro huquqiy talablarga muvofiqlashtirish jarayonlari davlat siyosatida milliy o‘zlikka tayangan holda amalga oshirilishi dalillangan;

migratsion jarayonlarni Yaqin Sharq arab davlatlari xavfsizligiga salbiy ta‘siriga qarshi preventiv choralar ko‘rish mexanizmi sifatida «ekspatlar» va «Islom-G‘arb-Afrika» sivilizatsion muloqot yondashuvini ilgari surish zarurati asoslangan;

Yaqin Sharq arab davlatlaridagi migratsiya muammolari asosan qabul qiluvchi davlatning milliy qonunchiligi va yuboruvchi arab davlatlarining diniy qadriyatlari o‘rtasidagi tafovut natijasida yuzaga kelayotganiga ko‘ra, muammoning siyosiy yechimlaridan biri sifatida mavjud muammoni «Yevropa Ittifoqi - Arab Davlatlari Ligasi» doirasida hal etish zarurati asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

migratsiya jarayonlarining kelib chiqish sabablari nizoli vaziyatlarning avj olishi hamda davlatlarning rivojlanish ko‘rsatkichlaridagi keskin tafovutlar sharoitida yanada kuchayib borishi, shuningdek, ularning ijobiy va salbiy jihatlari nazariy-metodologik jihatdan asoslab berilgan;

Yaqin Sharq davlatlari migratsiya jarayonlarini tartibga solish bo‘yicha rejali va nazoratli migratsiya tizimini yo‘lga qo‘yish, immigrantlarning jamiyatga integratsiyalashuvini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida ko‘plab chora-tadbirlar, ularning amaliy ahamiyati bilan bog‘liq yutuq va kamchiliklar ochib berilgan;

O‘zbekistonda migratsiya jarayonlarini tartibga solish va boshqarishda hamda davlatlararo munosabatlarda migratsiya diplomatiyasidan foydalanish maqsadida sohaga oid bo‘lgan ishonchli ma‘lumotlarni to‘plash, tarqatish va tahlil qilish bo‘yicha yagona raqamlashtirilgan ma‘lumotlar baza (Date base)sini shakllantirish va bu borada hukumat vakolatlarini yanada kengaytirish, shuningdek, ilmiy doiralarni

ham jalb qilgan holda institutsional salohiyatni oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK ro'yxatiga kirgan maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy konferensiyalar materiallarida e'lon qilinganligi, amaliyotda joriy qilingani va vakolatli idoralar tomonidan tegishli tartibda tasdiqlanganligi bilan ta'minlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* uning materiallaridan siyosatshunoslik, jahon siyosati, xalqaro munosabatlar, mintaqaviy-siyosiy jarayonlar, xavfsizlik va migratsiya masalalariga oid darslik va qo'llanmalar tayyorlashda, tashqi siyosatga doir tadqiqotlar o'tkazishda foydali bo'lishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* esa tadqiqot materiallari va xulosalaridan tegishli vazirlik va idoralar, oliy ta'lim muassasalari va sohaga oid muassasalar mutaxassislari uchun tahliliy materiallar tayyorlashda, ixtisoslashgan ta'lim muassasalarining o'quv kurslari va dasturlarida, "Xalqaro xavfsizlik", "Xalqaro munosabatlar", "Xalqaro huquq", "Mintaqashunoslik", "Konfliktologiya" fanlarini o'qitishda hamda tegishli yo'nalishlardagi tadqiqot ishlarini bajarishda foydalanish mumkinligi bilan ifodalanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yaqin Sharqdagi migratsion jarayonlarning arab davlatlari xavfsizligi va barqarorligiga ta'siri bo'yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

Yaqin Sharq arab davlatlaridagi migratsion oqimlar geografiyasi kengayishining mavjud va istiboldagi tendensiyalariga ko'ra «migratsiya omili» xavfsizlik masalalari bilan birgalikda ustuvor o'ringa ko'tarilishi Yevropaga konfliktogen ta'sir ko'rsatishning siyosiy instrumentiga aylanib borayotganligi borasidagi xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining axborot-tahliliy hujjatlarini tayyorlashda Konsullik-huquqiy departament tomonidan foydalanilgan. (*Tashqi ishlar vazirligining 2022-yil 19- sentyabrdagi 04-1/m-13011-sonli dalolatnomasi*). Natijada sohaga oid axborot-tahliliy bazani takomillashtirishga va amalda qo'llashga xizmat qilgan.

Migratsion jarayonlarni Yaqin Sharq arab davlatlari xavfsizligiga salbiy ta'siriga qarshi preventiv choralar ko'rish mexanizmi sifatida «ekspatlar» va «Islom-G'arb-Afrika» sivilizatsion muloqot yondashuvini ilgari surish zarurati borasidagi xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasining "tashqi mehnat migratsiyasi to'g'risida"gi qonun loyihasining 6-moddasi 5-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan. (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasi tomonidan berilgan 2022-yil 30-avgustdagi 04/3-02-22-sonli dalolatnomasi*). Natijada, sohaga oid xalqaro shartnomalar loyihalarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda asos bo'lib xizmat qilgan.

Yaqin Sharq arab davlatlaridagi migratsiya muammolari asosan qabul qiluvchi davlatning milliy qonunchiligi va yuboruvchi arab davlatlarining diniy qadriyatlari o'rtasidagi tafovut natijasida yuzaga kelayotganiga ko'ra, muammoning siyosiy yechimlaridan biri sifatida mavjud muammoni «Yevropa Ittifoqi - Arab Davlatlari

Ligasi» doirasida hal etish zarurati borasidagi taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo‘mitasi tomonidan sohaga oid qonun loyihalarini tayyorlashda foydalanilgan. (*O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo‘mitasi tomonidan berilgan 2022-yil 21-noyabrdagi 04/6-07-80-sonli dalolatnomasi*). Natijada, sohaga oid axborot-tahliliy bazani takomillashtirishga va amalda qo‘llashga xizmat qilgan.

Yaqin Sharq arab davlatlari mintaqaviy xususiyatiga ko‘ra migratsion jarayonlarning «donor davlat - migrant - tranzit davlat - resepiyent davlat» formati doirasidagi milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka etno-diniy va iqtisodiy-siyosiy jihatdan ijobiy ta‘siri Yaqin Sharq arab davlatlarining yaqin istiqboldagi xavfsizlik arxitekturasiga oid xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutining amaliy-tahliliy ishlanmalarini tayyorlashda, shuningdek, ilmiy seminarlar, simpoziumlar, davra suhbatlari va boshqa xalqaro tadbirlarda foydalanilgan. (*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutining 2022-yil 10-oktyabrdagi 05-5/992-sonli xati*). Natijada, sohaga oid axborot-tahliliy bazani takomillashtirishga va amalda qo‘llashga xizmat qilgan.

Fors ko‘rfazi arab davlatlaridagi migratsion oqimlarni tartibga solish, ularning milliy qonunchiligini xalqaro huquqiy talablarga muvofiqlashtirish jarayonlari davlat siyosatida milliy o‘zlikka tayangan holda amalga oshirilishi yuzasidan olingan xulosa va takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari huquqlarini himoya qilish va xalqaro iqtisodiy masalalari departamenti tomonidan shartnoma loyihalarini ishlab chiqishda foydalanilgan. (*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari huquqlarini himoya qilish va xalqaro iqtisodiy masalalari departamenti tomonidan 2022-yil 2-avgustda berilgan dalolatnomasi*). Natijada, davlatlar o‘rtaasida migratsion jarayonlarni tartibga solishga qaratilgan siyosatni muvofiqlashtirishda manba sifatida xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 12 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 6 ta xalqaro darajadagi va 6 ta respublika miqyosidagi konferensiyada muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 29 ta ilmiy ish, xususan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola (ulardan 11 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda) nashr ettirilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning tadqiqot qismi 246 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy adabiyotlar sharhi amalga oshirilgan, mavzuning o‘rganilganlik darajasi hamda uning dissertatsiya ishi bilan bog‘liqligi bayon qilingan, ishning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilangan. Tadqiqning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi hamda asosiy tadqiqot usullari ko‘rsatib berilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprotatsiya va e‘lon qilingan ishlar keltirilgan.

Tadqiqotning **“Zamonaviy bosqichda migratsiya jarayonlarini tadqiq etishning nazariy institutsional asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida migratsiya tushunchasining nazariy asoslari va tasnifi, migratsiya jarayonlarini tadqiq etishning institutsional asoslari hamda migratsiya va xavfsizlik kategoriyalari o‘zaro aloqadorligining nazariy-konseptual asoslari tahlil qilingan.

Bugungi kunda 281 mln.dan ortiq shaxs, ya‘ni dunyo aholisining 3,6% xalqaro migratsiya jarayonlariga jalb etilgan bo‘lib, bu 1990-yil ko‘rsatkichlari (128 mln)ga nisbatan 3 barobar ko‘pdir<sup>9</sup>. Shunga ko‘ra, biz xalqaro migratsiyaga qabul qiluvchi va yuboruvchi davlatlarning demografik dinamikasi, mehnat bozori hamda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatuvchi omil sifatida e‘tibor qaratish muhim, deb hisoblaymiz. Migratsiya muammosining kelib chiqish tarixi qadimgi davrga borib taqaladi. Taxminlarga ko‘ra, ingliz olimi Ye.Ravenshteyn tomonidan 1885-1889 yillarda migratsiyaga ilk bor ilmiy-nazariy jihatdan ta‘rif berilgan. Unga ko‘ra, migratsiya – kishilar yashash joyining doimiy yoki vaqtincha o‘zgarishi bilan bog‘liq hodisadir. Global miqyosdagi ko‘chishlar o‘z ko‘lamiga ko‘ra, rekord darajaga yetgan bo‘lib, ayni paytda ichki ko‘chirilganlarning umumiy soni 55 million kishini, qochoqlar soni esa, 26 millionni tashkil etmoqda. Garchand, xalqaro muhojirlar dunyo aholisining 3,6 foizini tashkil etsada, davlatlar kesimida ularning turlicha namoyon bo‘lishini ko‘rish mumkin. Masalan, Saudiya Arabistoni kabi davlatlardagi muhojirlar soni aholining 88 foizini tashkil etadi<sup>10</sup>.

Ilmiy nuqtai nazardan migratsiya va u bilan bog‘liq qator kategoriyalar mohiyatini ochib beruvchi umume‘tirof etilgan ta‘riflar mavjud emas. Shunga ko‘ra, ilmiy tadqiqotlarda migratsiya kategoriyasiga nisbatan turli xil ta‘riflarni uchratish mumkin. Migratsiya – bu aholining yashash va ishlash maqsadida bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishidir<sup>11</sup>. Ayni paytda, migratsiyaga oid ikki xil tushuncha mavjud, ya‘ni ichki va tashqi (xalqaro) migratsiya. Ta‘kidlash joizki, milliy davlat chegarasidan o‘tib, xorijga chiqqan har qanday shaxs migrant hisoblanmaydi: turistlar, xizmat safarini uyushtirganlar va boshqalar shular jumlasidandir.

<sup>9</sup> International Organization for Migration (2022). World Migration Report 2022. <https://worldmigrationreport.iom.int/wmr-2022-interactive/>

<sup>10</sup> World Migration Report 2022: Chapter 2 – Migration and Migrants: A Global Overview. // URL.: <https://publications.iom.int/books/world-migration-report-2022-chapter-2>

<sup>11</sup> Wickramasinghe W. International migration and migration theories - January 2017. // Social Affairs: A Journal for the Social Sciences // Social Affairs. – 2017. – Vol. 1. – №. 5. – PP. 13-32. // URL.: <https://www.researchgate.net/publication/312211237>

Umuman olganda, “migratsiya” ko‘p qirrali tushuncha bo‘lgani bois, u ilmiy doirada turlicha talqin etiladi. Mazkur tushunchaning kelib chiqishi, lotincha “migratio” so‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, “ko‘chish”, “siljish” kabi ma‘nolarni anglatadi<sup>12</sup>. Maxsus adabiyotlar tahlili, ushbu tushunchadan keng va tor ma‘noda foydalanish mumkinligini ko‘rsatmoqda. Keng ma‘noda migratsiya davomiyligi, uzluksizligi va maqsadli ekanligidan qat‘iy nazar, bir yoki bir necha ma‘muriy-hududiy birliklar o‘rtasida amalga oshiriluvchi hududiy ko‘chishlarni anglatadi<sup>13</sup>. Tor ma‘noda esa, doimiy yashash joyining o‘zgarishi bilan yakun topgan hududiy ko‘chish jarayoni tushuniladi<sup>14</sup>.

Ichki migratsiya deganda, kishilarning bir davlat hududida joylashgan iqtisodiy-jug‘rofiy yoki ma‘muriy-hududiy birliklari o‘rtasida ko‘chib yurishlari tushuniladi. Ichki migratsiya ikki turga, ya‘ni *qishloq* va *shahar* ahli migratsiyasiga ajratiladi. Xalqaro migratsiya – davlatlar, turli mintaqalar o‘rtasida aholining ko‘chishini anglatadi. Tashqi migratsiyaga *emigratsiya* va *immigratsiya* misol bo‘la oladi. Shu o‘rinda, *reemigratsiya* va *repatriatsiya* kabi tushunchalarga ham alohida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq. Tahlillar natijasida aniqlandiki, biror mamlakatda bir yildan ortiq qolgan sayyoh bir qator davlatlardagi tegishli xizmatlar tomonidan migrant sifatida e‘tirof etilsada, hech bir davlatda shaxsning rasman migrant maqomini olish uchun qancha muddat davomida qabul qiluvchi davlatda qolishi kerakligi borasida aniq qoida o‘rnatilmagan. BMT mezoniga ko‘ra, migrats xalqaro hisoblanishi uchun migrantning xorijda qolish muddati 1 yildan ortiq bo‘lishi kerak<sup>15</sup>.

Bir so‘z bilan aytganda, “migratsiya”ga nisbatan zamonaviy qarashlar tahlili asosida, uning mohiyatini ochib berishga qaratilgan yondashuvlarni asosan to‘rt turga ajratish mumkin: Birinchidan, migratsiyaga nisbatan keng aholi ommasining davlatlar hududiy birligi doirasidagi ko‘chishi, shuningdek, muayyan ijtimoiy guruhlarning har qanday tashkiliy tuzilma doirasida harakatlanishi sifatida qaraladi<sup>16</sup>. Ikkinchidan, migratsiyaga katta miqdordagi aholi oqimining yakuniy maqsadlaridan qat‘iy nazar, hududiy siljishlari sifatida ta‘rif beriladi. Uchinchidan, aholi ommasi yashash manzilining o‘zgarishi bilan xarakterlanuvchi jarayonni migratsiya sifatida qabul qilish mumkin. To‘rtinchidan, migratsiya deganda, kishilarning makon bo‘ylab harakatlanishi tushuniladi va bunda uning oqibati sifatida hudud bo‘ylab qayta taqsimot yuzaga keladi. Yuqoridagi fikrlar asosida “migratsiya” jarayonining quyidagi belgilarini aniqlash mumkin: hududiy chegaralardan o‘tish, yashash manzilining o‘zgarishi hamda davlatning alohida shaxslari tomonidan mazkur o‘zgarishlarning davomli kechayotgani kabilar shular jumlasidandir<sup>17</sup>.

Migratsiyani tasniflashda, ularni 5 turga ajratish maqsadga muvofiq: mehnat migratsiyasi (labour), oila migratsiyasi (family), qaytish migratsiyasi (return), etnik

<sup>12</sup> Ушакова Д. Толковый словарь русского языка.– Москва, 2000. – Т. 1. – С. 247.

<sup>13</sup> Рыбаковский Л. Миграция населения: прогнозы, факторы, политика. – М.: Наука, 1987. – С. 26.

<sup>14</sup> Рыбаковский Л. Миграция населения: прогнозы, факторы, политика. – М.: Наука, 1987. – С. 18.

<sup>15</sup> Губина М. Мировая экономика и международные экономические отношения. – М.: Юрайт, 2017. – С. 234.

<sup>16</sup> Рыбаковский Л. Миграция населения: прогнозы, факторы, политика. – М.: Наука, 1987. – С.18.

<sup>17</sup> Концепция государственной миграционной политики РФ на период до 2025 года (утв. Президентом РФ 13.06.2012 г.) // Сайт Президента РФ. // URL: <http://www.kremlin.ru/events/president/news/15635>.

migratsiya (ethnic) va boshpanaga ega bo'lish maqsadidagi migratsiya (asulyim)<sup>18</sup>. Migratsiyaga oid nazariyalarni to'rt guruhga ajratish mumkin: klassik (mumtoz) maktab, neoklassik maktab, yangi iqtisodiy migratsiya nazariyasi hamda migratsiyaning neoklassiklardan iborat makroiqtisodiy nazariyasi<sup>19</sup>. Bir qator tadqiqotchilarning fikricha, keng qamrovli va yagona mohiyatga ega bo'lgan universal migratsiya nazariyasini shakllantirish imkoniyati mavjud emas. Zero, migratsiya turli ijtimoiy hodisalarni o'zida qamrab olgan murakkab jarayondir<sup>20</sup>.

Ijtimoiy ong darajasida "xavfsizlik" tushunchasi xavfning yo'qligi, mavjud emasligi va ishonchlilik sifatida tavsiflanadi. Bugungi kunda xalqaro migratsiya xavfsizlik kun tartibining keng muhokamalarga sabab bo'lgan, ammo yirik bahslarga boy bo'lgan sohalaridan biri bo'lib qolmoqda. Migratsiyaning xavfsizlik bilan bog'liq jihatlari "Sovuq urush" davridan keng tadqiq etila boshladi. Dohadagi "Nohoudh Centre for Research & Studies" markazi tadqiqotchisi I.Ahmadning fikricha, "Migratsiya tadqiqotlari" hanuzgacha ilmiy-tadqiqot sohasi sifatida xalqaro munosabatlarning nisbatan yangi sohasi hisoblanadi. Buni, migratsiyaning ichki muammo sifatida ko'rib chiqilgani hamda xalqaro xavfsizlikka nisbatan ta'siri yetarlicha baholanmagani bilan bog'lash mumkin. Bir guruh tadqiqotchilarning fikricha, migratsiya va xavfsizlik o'rtasidagi munosabatlar ikki tomonlama xarakterga ega: *bir tomondan*, muammo migratsiya oqimlari ta'siriga uchragan jamiyat va davlatlar xavfsizligi prizmasi orqali o'rganilsa, *ikkinchi tomondan*, migrantlarning o'z shaxsiy xavfsizligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq<sup>21</sup>.

Migratsion oqimlar, qabul qiluvchi davlatning, avvalo ijtimoiy munosabatlari, ularning etnik gomogenligiga tahdid solgani bois<sup>22</sup>, g'arb tadqiqotlarida (asosan Kopengagen xavfsizlik maktabi tomonidan) "*sotsiyetal xavfsizlik*" ("societal security") konsepsiyasi rivojlantirildi. Mazkur atamani o'zbek tilidagi "ijtimoiy xavfsizlik" ("social security") iborasi bilan o'zaro sinonim tarzda qo'llab bo'lmaydi. Ijtimoiy xavfsizlik o'z mohiyatiga ko'ra, jamiyat a'zolarining ijtimoiy ta'minot nuqtai nazaridan himoyalanganligini anglatadi. "*Sotsiyetal xavfsizlik*" ("societal security") deganda esa, jamiyatning o'zligini saqlab qolish xolati tushuniladi. Yuqoridagilar bilan bir qatorda, migratsiya va xavfsizlikning o'zaro aloqadorligi nuqtai nazaridan, "inson xavfsizligi" konsepsiyasi (human security concept) va uning doirasida migrantlarning shaxsiy xavfsizligi bilan bog'liq masalaga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Shunday qilib, migratsion jarayonlarni boshqarish tizimi samaradorligini oshirish hamda davlatlarning milliy xavfsizligini ta'minlashda migratsiya muammosini hal qilishga doir kompleks yondashuv talab etiladi.

---

<sup>18</sup> Jennissen R. Macro-economic Determinants of International Migration in Europe. Monograhya. –Amsterdam, 2004: Dutch University Press. –P.8.

<sup>19</sup> Расулова Д.В. Ишчи кучи миграцияси ривожланишинг назарий асослари. – Монография. – Т., 2010. – Б.38.

<sup>20</sup> Hein de Haas. A theory of migration: the aspirations-capabilities framework // Comparative migration studies. –2021. – PP. 1-35. 24 February 2021. // URL.: <https://comparativemigrationstudies.springeropen.com/track/pdf/10.1186/s40878-020-00210-4.pdf>

<sup>21</sup> Прохода В.А. – Миграция как угроза безопасности принимающего сообщества: особенности восприятия коренным населением // Национальная безопасность / Nota bene. – 2020. – № 2. – С. 62 - 82.

<sup>22</sup> Weiner M. Security, Stability and International Migration // International Security. – 1993. – Vol.17. – № 3. – PP.91-126.

Dissertatsiyaning “**Yaqin Sharq mintaqasida migratsiya jarayonining shakllanish shart-sharoitlari**” deb nomlangan ikkinchi bobi Yaqin Sharq mintaqasida migratsiya jarayoniga taʼsir koʻrsatuvchi omillar hamda ularning oʻziga xos xususiyatlari, shuningdek, migratsiya jarayonlarining Yaqin Sharq davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga taʼsirini oʻrganishga bagʻishlangan.

Migratsiya muammosiga oid nazariyalarga tayangan holda, Yaqin Sharq mintaqasida kechayotgan migratsion jarayonlarni tahlil qilish orqali, mavjud vaziyatning shakllanishiga taʼsir koʻrsatuvchi omillarni ikki guruhga ajratish mumkin: *oʻziga jalb etuvchi (pull factors)* va *oʻzidan yiroqlashtiruvchi (push factors)* omillar. Oʻziga jalb etuvchi (pull factors) omillarni biz, asosan Fors Koʻrfazidagi boy arab davlatlari misolida koʻrishimiz mumkin. Bunda, migrantlarning katta qismi Janubiy Osiyo davlatlari hissasiga toʻgʻri keladi. Shu bilan bir qatorda, Iroq, Suriya, Livan va Yaman kabi davlatlarda yuzaga kelgan beqaror vaziyat, oʻzidan yiroqlashtiruvchi (push factors) omil taʼsirida, koʻpsonli muhojirlar oqimini shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Migratsion oqimlarning faollashuvi bilan bevosita bogʻliq boʻlgan va jahon hamjamiyatining tashvishiga sabab boʻlayotgan dolzarb muammolardan biri, iqlim oʻzgarishlari bilan bogʻliq. Maʼlumki, global miqyosdagi toʻyib ovqatlanmaslik muammosining yechimiga koʻplab omillar toʻsqinlik qilmoqda. Ularga iqtisodiy oʻsish surʼatlarining pasayishi, qurolli mojarolar, ogʻir gumanitar vaziyat, kasalliklarning avj olishi va zararkunandalar hujumi, shuningdek, qurgʻoqchilik va ekstremal ob-havo kabi koʻplab salbiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi iqlim oʻzgarishlari taʼsir koʻrsatmoqda. Odatda, toʻyib ovqatlanmaslik, avvalo, qashshoqlik, tengsizlik va ijtimoiy izolyatsiya bilan xarakterlanadi. Toʻyib ovqatlanmaslikdan aziyat chekuvchi aholining katta qismi, yaʼni aholining beshdan bir qismi (250 mln.dan ortiq kishi) Afrikada istiqomat qiladi. Osiyoda mazkur koʻrsatkich 8,3 % (381 mln. kishi)ni tashkil etadi. Bugungi kunda nizoli vaziyatlar, iqlim oʻzgarishlari va COVID-19 oqibatlari zahirida oziq-ovqat taqchilligini boshdan kechirayotgan asosiy davlatlar sirasiga Afgʻoniston, Kongo, Yaman, Nigeriya, Suriya, Sudan, Efiopiya va Janubiy Sudan kabilarni kiritish mumkin<sup>23</sup>.

Mintaqadagi beqaror vaziyat, Yaqin Sharq mintaqasida yirik qochoqlar oqimining paydo boʻlishi va aholining majburiy migratsiyasiga sabab boʻluvchi asosiy omillardan biri boʻlib qolmoqda. Amerikalik tahlilchi olim A.Koen Yaqin Sharqda kuzatilayotgan mintaqaviy beqarorlikni quyidagi uch asosiy omil bilan bogʻlaydi: *suv resurslari, neft va din* bilan bogʻliq qarama-qarshiliklar<sup>24</sup>. Bizning fikrimizcha, mintaqadagi beqaror vaziyatga taʼsir etuvchi omillar sirasiga *etnosiyosiy muammolar* va *terrorizm* kabilarni ham kiritish oʻrinlidir. Mintaqada migratsion jarayonlarning avj olishiga taʼsir koʻrsatuvchi muhim omillardan yana biri, *ekologik muammolar* bilan bogʻliq. Zero, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasi oʻzaro bogʻliq boʻlgan murakkab muammolar girdobida qolgan. Bugungi kunda, majburiy

<sup>23</sup> Office for the Coordination of Humanitarian Affairs, Global Humanitarian Overview 2020 // URL.: [www.unocha.org/sites/unocha/files/GHO2020\\_v9.1.pdf](http://www.unocha.org/sites/unocha/files/GHO2020_v9.1.pdf)

<sup>24</sup> Ariel Cohen. Top three sources for conflict in the Middle East // April 11, 2015 // URL.: <https://Thewellesleynews.com/2015/04/11/Middle-East-top-three>

ko'chirilganlarning aksariyat qismi tabiiy-iqlim sharoitlariga moslashgan holda, yashab kelmoqdalar.

*Iqtisodiy omillar* – bu nafaqat Yaqin Sharq, balki dunyo miqyosidagi migratsiyaning asosiy drayverini tashkil etadi. Mantiqan qaralganda, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika arab davlatlari ikki qismga bo'linib qolgan: neftga boy bo'lgan, iqtisodiy jihatdan farovon mezbon Fors ko'rfazi monarxiyalari hamda iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari nisbatan past bo'lgan, ammo inson resurslariga boy bo'lgan donor davlatlar. Iqtisodiy maqsadlarni ko'zlovchi Yaqin Sharqdagi arab davlatlari migrantlari asosan ikki yo'nalishda harakatlanadilar: birinchisi, neftga boy bo'lgan Ko'rfaz davlatlari, ikkinchisi rivojlangan G'arb yo'nalishi: asosan Yevropa Ittifoqi va qisman Amerika. Mazkur davlatlardagi yalpi ichki mahsulot hajmining jon boshiga nisbatan ulushi yuqori bo'lsada, ko'psonli aholini neft sanoatidagi bandligini ta'minlab bo'lmaydi. Shu boisdan, fuqarolarning bandlik va ijtimoiy ta'minot masalasida davlatga nisbatan qaramligi mustahkamlanib boraveradi. Bu esa, o'z navbatida mustaqil, plyuralistik o'rta sinfni shakllantirish imkonini bermaydi<sup>25</sup>.

Yaqin Sharq jahonda muhojirlar soni mahalliy aholi nisbatiga ko'ra, eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan mintaqadir. Shu boisdan, u xalqaro migratsion oqimlarning harakatlanish tendensiyalarini kuzatishga xizmat qiluvchi maydon vazifasini o'taydi. Ma'lumki, iqtisodiy migratsiya va majburiy ko'chishlar, yuqori darajada integratsiyalashgan hududiy mehnat bozorining shakllanishiga olib keldi. Mehnat migratsiyasi Yaqin Sharqdagi eng yuqori dinamik ko'rsatkichga ega bo'lgan iqtisodiy omillardan biri sanaladi. Shunga ko'ra, mintaqadagi mehnat muhojirlari tomonidan uylariga yuborilgan pul o'tkazmalari, mintaqaviy tovarlar savdosi hamda rasmiy kapital oqimlari qiymatidan bir necha bor oshib ketadi.

So'nggi yillarda Fors Ko'rfazi arab davlatlari rasmiylari xususiy sektorda xizmat qiluvchi xorijliklarni mahalliy ishchi kuchi bilan almashtirish maqsadga muvofiq emasligini anglab yetdilar. Zero, oylik maoshidagi tafovutlar hamda mavjud ijtimoiy-siyosiy tizim bunga to'sqinlik qilishi tabiiy. Ishsizlikning oldini olish hamda xorijliklardan iborat bo'lgan ishchi kuchiga nisbatan mavjud qaramlikni kamaytirish maqsadida, mazkur davlatlar tomonidan ishchi kuchi samaradorligini oshirish siyosati yuritilmoqda. Unga ko'ra, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlaridan jalb qilingan ko'psonli arzon ishchi kuchidan foydalangan holda, xususiy sektorda yangi ish o'rinlarini yaratish yo'li bilan, mahalliy aholi bandligini ta'minlash ko'zda tutilmoqda. Shunday qilib, mahalliy hukumat vakillari ikki asosiy maqsadga erishishga umid bog'lamoqdalar, ya'ni mahalliy aholi orasidagi ishsizlik darajasini qisqartirish hamda neft qazib chiqarishni maksimal darajada cheklash yo'li bilan iqtisodiy diversifikatsiyaga erishish<sup>26</sup>. Dastlab, FKADHKga a'zo davlatlar, o'zlarida mavjud bo'lgan yirik uglevodorod zahirasi (dunyo zahirasining 45 foiz)ga tayangan holda, salkam yarim asr davomida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'lini belgilashda milliy iqtisodiyotning mavjud imkoniyatlaridan unumli foydalanib keldilar. Ammo, keyingi yillarda uglevodorod resurslarining cheklanganligi hamda bitmas-tuganmas boylik

<sup>25</sup> Roskin M. Political Science: An Introduction (12<sup>th</sup> edition). – New Jersey: Pearson, 2013. – P.114.

<sup>26</sup> Winckler O. Labor Migration to the GCC States: Patterns, Scale, and Policies // Migration and the Gulf. The Middle East Institute, Viewpoints. February 2010. – PP.9-12. // URL.: <https://cris.haifa.ac.il/en/publications/labor-migration-to-the-gcc-states-patterns-scale-and-policies>

emasligini anglagan holda, diversifikatsiyaga asoslangan holda, o'ziga xos taraqqiyot yo'liga intila boshladilar.

Darhaqiqat, migratsion jarayonlar haqida so'z borganda, aksariyat hollarda salbiy holatlar ko'z oldimizga keladi. Ammo, mazkur jarayonning qabul qiluvchi va yuboruvchi davlatlar uchun ijobiy jihatlari ham ko'plab uchraydi. Shu boisdan, tadqiqot mavzusi doirasida, masalaning mazkur jihatlari ham qisqacha to'xtalib o'tish maqsadga miuvofiq. Bir tomondan, migratsion jarayonlar qabul qiluvchi davlatlarni arzon ishchi kuchi bilan ta'minlash imkonini bersa, boshqa tomondan moliyaviy oqimlar yuboruvchi davlatlarning iqtisodiy ravnaqiga xizmat qiladi. Masalaning e'tiborga molik jihati, migrantlar orasida dunyoga mashhur bo'lgan shaxslarning yetishib chiqqanligi hamda ularning jamiyat va davlat ravnaqiga qo'shgan hissasi bilan belgilanadi. Arab davlatlaridagi migrant va qochoqlarning  $\frac{3}{4}$  qismini o'z ichiga qamrab olgan Yaqin Sharqning neftga boy bo'lgan davlatlaridagi migratsion jarayonlar tahlili, fuqarolarning bandligini asosan davlat sektorida, xorijliklarning bandligini esa, avvalo xususiy sektorda ta'minlashga yo'naltirilgan ikki tomonlama mehnat bozori shakllanganligini ko'rsatmoqda. Tabiiyki, mavjud holat arab davlatlarida demokratik tamoyillarning o'rnatilishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan holda, mazkur davlatlardagi demokratiyani shubha ostiga qo'yadi. Odatda, bu kabi davlatlarda neft hisobidan olingan daromad tor doiradagi shaxslar qo'lida to'planishi demokratiyaning yemirilishiga olib keladi. Shu boisdan, bu kabi davlatlarni demokratik davlat sifatida baholab bo'lmaydi.

**“Yaqin Sharqda migratsiya muammosining mintaqaviy geosiyosiy jarayonlar hamda davlatlararo munosabatlarda aks etishi”** deb nomlangan uchinchi bobda Yaqin Sharqdagi zamonaviy geosiyosiy jarayonlarning mintaqadagi migratsion vaziyatga ta'siri hamda Yaqin Sharqdagi nizoli markazlarda migratsiya muammosi va uning mintaqaviy xavfsizlikka ta'siri o'rganilgan.

Hozirgi davrda Yaqin Sharq mintaqasida yuz bergan voqealar o'z mohiyatiga ko'ra global ta'sir ko'rsatish xususiyatini namoyon qilmoqda. Buni mintaqada kechayotgan geosiyosiy jarayonlar va ularning migratsion jarayonlarga ta'siri bilan bog'lash mumkin. Yaqin Sharq geografik jihatdan Osiyoni Afrika va Yevropa bilan bog'lovchi ko'prik vazifasini o'taydi, shu bilan bir qatorda, tabiiy resurslarga boy bo'lgan mazkur mintaqa dunyoning uch asosiy dini uchun markaz hisoblanadi. Yaqin Sharqdagi geosiyosiy jarayonlarni qisqacha davriy va sohaviy jihatdan ko'rib chiqadigan bo'lsak, ularni quyidagicha tasniflash mumkin: hududlarni qo'lga kiritish yoki bosib olish; tabiiy resurslarni qo'lga kiritish yoki nazorat qilish; siyosiy rejimlarni o'zgartirish uchun davlat to'ntarishi va ichki nizolarni keltirib chiqarish; mintaqada yetakchilik uchun kurash; etnik va diniy-konfessional mojarolar. Bularning geosiyosiy jarayonlar bilan bog'liqligi yuqoridagi barcha ko'rinishdagi muammolarda mutlaqo tashqi kuchlarning roli va ta'siri borligi bilan belgilanadi<sup>27</sup>.

Tashqi kuchlarning mintaqaga bo'lgan qiziqishining tobora kuchayib borishi sharoitida, uning geografik chegaralari borasidagi qarashlarda ham muayyan o'zgarishlar kuzatildi. Buni “Katta Yaqin Sharq” konsepsiyasining ilgari surilishi misolida ham ko'rish mumkin. AQSh rasmiylarining fikricha, xalqaro terrorizmning

---

<sup>27</sup> Каримов Ф.Э. Яқин Шарқда этник курдлар муаммоси: Монография. – Т.: “LESSON PRESS”, 2020. – Б. 135.

avj olishi hamda ommaviy qirg'in qurollari tarqalish xavfining mavjudligi, shuningdek, mavjud iqtisodiy va siyosiy beqaror vaziyat "Katta Yaqin Sharq" davlatlarini o'zaro birlashtiruvchi xususiyatlar majmuini tashkil etadi. Ayni paytda, umumiy hisobda Yaqin Sharqda beqaror vaziyat kuchayishda davom etmoqda. Bu esa, mojarolarning bir-biriga tutashib, xalqaro tus olish ehtimolini yanada kuchaytirmoqda. "Arab bahori" voqealarining boshlanishi, "Iroq Islomiy davlati"ning mintaqadagi ta'sir doirasini kengaytirish uchun qulay shart-sharoit yaratib berdi. 2013 yilning aprel oyida "Iroq Islomiy davlati" o'zini "Iroq va Shom Islomiy davlati" (IShID) deb yuritilishini ma'lum qildi. Ushbu bayonot, guruh faoliyati Iroq chegaralaridan chiqib, Suriyaga ham yoyilgani va endilikda, islomiy davlat qurish rejasi nafaqat Iroqni, balki butun Shom (Suriyaning qadimgi nomi bo'lib, keng ma'noda butun Levant, ya'ni O'rtayer dengizining sharqiy qismi tushuniladi) hududini ham qamrab olganini anglatar edi.

Yaqin Sharq davlatlarida yuz berayotgan transformatsiya jarayoni, ularning ravnaqiga turlicha ta'sir o'tkazgan: Misr va Tunis kabi davlatlar siyosiy tizimida yangi elementlarning paydo bo'lishi, hukmron tuzumlarining ag'darilishi va konstitutsiyaviy islohotlarning amalga oshirilishi bilan xarakterlanuvchi *demokratlashtirish jarayoni*; Marokash va Iordaniya kabi davlatlarda kuzatilgan yirik siljishlarsiz, ammo amaliy natijalarga ega bo'lgan islohotlarning amalga oshirilishi bilan bog'liq *liberal-demokratik islohotlarning jadallashtirilishi*; Fors ko'rfazi monarxiyalaridagi mavjud hokimiyatni saqlab qolgan holda, liberallashtirish elementlarining joriy etilishi, ya'ni *aste-sekinlik bilan liberallashtirish jarayoni*; Liviya, Yaman va Suriya kabi davlatlardagi vaziyatning keskinlashuvi hamda davlatlarning yaqin kelajakdagi istiqbolini belgilash murakkab kechayotgan *siyosiy beqarorlik jarayoni* kabilar shular jumlasidandir.

Yaqin Sharq mintaqasidagi mavjud beqaror vaziyat migratsion jarayonlarning avj olishi hamda bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishga sabab bo'lmoqda. Xususan, *Suriya* o'n yildan ortiq davom etgan mojarolardan so'ng, qochoqlar bilan bog'liq eng yirik inqirozni boshdan kechirib kelayotgan davlatlardan biridir. 2011 yildan buyon 14 mln. dan ortiq suriyaliklar o'z uylarini tark etishga majbur bo'lganlar. Ayni paytda, aholining 90 foizi qashshoq, 70 foizi esa, insonparvarlik yordamiga jiddiy ehtiyoj sezmoqda. Suriyadagi ichki ko'chirilganlar soni 6,8 mln. dan ortiq bo'lib, 5,5 millionga yaqin suriyalik qochoqlar Turkiya, Livan, Iordaniya, Iroq va Misr kabi davlatlardan qo'nim topgan.<sup>28</sup> *Iroq* mazhablararo va etnik ziddiyatlar, uzoq yillik diktatura, uzluksiz mojarolar, tashqi kuchlarning aralashuvi va IShIDga qarshi urushlar ta'sirida uzoq yillik tarixga ega bo'lgan ko'psonli ichki ko'chishlarni boshdan kechirdi. AQSh bosqini ta'sirida, 2010-yilda Iroqdagi muhojirlar soni 2,8 million kishiga yetdi. 2011-yilgi "Arab bahori" voqealari esa, misli ko'rilmagan darajadagi ko'chishlar va keskin gumanitar inqirozlarni boshlab berdi. Iroqdagi muhojirlar soni 2017-yilda 2,6 million, 2018-yilda 2 million va 2019-yilda 1,6 millionga qisqarganini kuzatish mumkin. 2021-yil yakunlariga ko'ra, Iroqdagi qochoqlar va ichki ko'chirilganlarning umumiy soni 9,2 mln kishini

---

<sup>28</sup> Syria Refugee Crisis Explained // URL.: <https://www.unrefugees.org/news/syria-refugee-crisis-explained/>

tashkil etgan<sup>29</sup>. *Yamanda* yuzaga kelgan siyosiy vaziyat dunyodagi eng keskin inqirozlardan biri sifatida qayd etilgan bo‘lib, bunda aholining qariyb 80 foizi nochor ahvolga kelib qolganligini ko‘rish mumkin. 2019-yil oxiriga kelib, 3,6 millionga yaqin inson, ya‘ni aholining qariyb 12 foizi ichki migratsiyaga duch kelgan. Mintaqadagi boshqa yirik mojarolardan farqli o‘laroq, Yamandagi siyosiy vaziyat keng ko‘lamli transchegaraviy harakatlarga sabab bo‘lmadi. XMT tomonidan 2023-yilda berilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, Yamandagi muhojirlar 200 ming kishini, ichki ko‘chirilganlar esa, 4,5 millionni tashkil etgan<sup>30</sup>. Davlat hududidan tashqariga chiqish istagini bildirganlar ko‘pchilikni tashkil etgan, ammo ularning ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli va jismoniy zo‘riqishlari bunga imkon bermagan. *Falastinda* yuz bergan ko‘chishlar dunyodagi eng uzoq davom etgan ko‘chirilishlardan biri hisoblanadi. 1967-yilgi urushdan buyon ko‘psonli muhojirlar o‘z uylarini tark etganlar. Ammo, so‘nggi o‘n yil ichida kuzatilgan jangovar harakatlar natijasida uy-joylarning vayronaga aylanishi, buning ortida esa, ularning takroran o‘z uylarini tark etishga majbur qildi. 2019-yilda Falastinda 1500 ta yangi ko‘chishlar qayd etilgan bo‘lsa, 2021-yil yakunlariga ko‘ra, bu ko‘rsatkich 243 000 kishini tashkil etgan. Masarat tadqiqot markazi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2019-2023 yillar oralig‘ida G‘azoga noqonuniy asosda ko‘chirilganlarning umumiy soni 36 ming kishini tashkil etgan<sup>31</sup>.

Dissertatsiyaning **“Yaqin Sharqda milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlashda migratsiya oqimini boshqarish va nazorat qilish masalasi”**ga bag‘ishlangan to‘rtinchi bobida Arab davlatlarining migratsion jarayonlarni tartibga solish borasidagi siyosati xususiyatlarining qiyosiy tahlili o‘tkazilgan, Yaqin Sharqdagi migratsiya muammosini tartibga solishda mintaqa arab davlatlari o‘zaro hamkorligining bugungi holati o‘rganilgan hamda Yaqin Sharqdagi migratsiya muammosi va Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligining o‘zaro aloqadorlik xususiyatlari tadqiq etilgan. Yaqin Sharq mintaqasi arab davlatlari o‘z milliy manfaatlariga tayangan holda, migratsion oqimlarni tartibga solish va nazorat qilish maqsadida o‘ziga xos migratsion siyosat yuritib kelmoqdalar. Mavjud siyosatning natijasi o‘laroq, 2020-yillarga kelib, “kafala” tizimi samarasizligi va o‘zini oqlamayotganligi o‘z isbotini topdi. BMT tomonidan berilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, 2022-yil yakunlariga ko‘ra, FKADHKga a‘zo davlatlar hududidagi xalqaro muhojirlarning umumiy ulushi mahalliy aholi nisbatiga ko‘ra, 52,7 foizni tashkil etgan<sup>32</sup>. Fors ko‘rfazi arab davlatlari hamkorlik kengashining BAA, Saudiya Arabistoni, O‘mon, Qatar, Bahrayn va Quvayt kabi davlatlari dunyoning istalgan nuqtasidagi mehnat muhojirlari uchun muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib, so‘nggi o‘ttiz yillikda mazkur hududdagi migratsion oqimlar o‘sishda davom etmoqda.

---

<sup>29</sup> Iraqi refugees // Watson institute international and public affairs // URL.:

<https://watson.brown.edu/costsofwar/costs/human/refugees/iraqi>

<sup>30</sup> A Decisive Year for Yemen: IOM Appeals for USD 183 Million to Provide Relief to Over 4 Million People in Need // NEWS LOCAL IOM. – 27 February 2023 // URL.: <https://yemen.iom.int/news/decisive-year-yemen-iom-appeals-usd-183-million-provide-relief-over-4-million-people-need>

<sup>31</sup> Palestinians from Gaza risk death at sea dreaming of a better life in Europe // Agencies - January 2023 //

URL.: <https://www.timesofisrael.com/palestinians-from-gaza-risk-death-at-sea-dreaming-of-a-better-life-in-europe/>

<sup>32</sup> Key facts about recent trends in global migration. December 16, 2022 // URL.: <https://www.pewresearch.org/fact-tank/2022/12/16/key-facts-about-recent-trends-in-global-migration/>

Mahalliy aholi va muhojirlar o'rtasidagi munosabatlar millatchilik kayfiyatining avj olishi, migrantlarga nisbatan mehnat bozorini o'zlashtirish bilan bog'liq ayblovlarning qo'yilishi, adolatsiz raqobat muhiti, muhojirlar ishtirokidagi jinoyatchilikning avj olishi va migratsiyaga oid siyosatga nisbatan tanqidiy ruxning shakllanganligi kabilar zamirida tobora keskinlashmoqda. Arabiston yarim oroli davlatlarida, so'nggi yillarda migratsion vaziyatni tartibga solish va mehnat sharoitlarini yaxshilashga urinishlar, asosan, qonun hujjatlarini qabul qilish va nazorat organlarini tashkil etish yo'li bilan amalga oshirildi. Ammo, hanuzgacha mazkur davlatlardagi vaziyatni qoniqarli deb bo'lmaydi. Mazkur davlatlarning har birida o'ziga xos migratsiya siyosati yuritilayotganiga qaramay, muhojirlarni ishga qabul qilishda "Human Rights Watch" tashkiloti tomonidan tanqid ostiga olingan "kafala" tizimidan hanuzgacha foydalanib kelinmoqda. So'nggi yillarda davlatlar tomonidan yuritilayotgan migratsiya siyosati ularning milliy manfaatlari va qadriyatlariga tayangan holda, o'ziga xos tarzda shakllantirilayotganini ko'rish mumkin. Yaqin Sharq davlatlari migratsion siyosatidagi o'ziga xoslikning saqlanib qolayotgani hamda unga yechim topish borasidagi jahon tajribasining to'la shakllanmaganligi, mavjud vaziyatning yanada jiddiy tus olishiga sabab bo'lmoqda. Shunga qaramay, turli mintaqaviy va xalqaro tuzilmalar doirasida mazkur muammoga yechim topish borasida bir qator amaliy sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda.

2015-yilda BMT tomonidan 2030-yilga qadar Barqaror rivojlanish maqsadlariga sog'liqni saqlash, gender tengligini ta'minlash, shuningdek, xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiyani yo'lga qo'yish, bir so'z bilan aytganda, xalqaro muhojirlar huquqlarini himoya qilish orqali erishish ko'zda tutilgan<sup>33</sup>. Migratsion jarayonlarni tartibga solish borasida Yaqin Sharq davlatlari o'rtasida FKADHK, ADL, IHT, Umumarab erkin savdo hududi, BMT G'arbiy Osiyo bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi, Neftni eksport qiluvchi arab davlatlari tashkiloti (OAPEC), Tariflar va savdo bo'yicha Bosh kelishuvi (GATT), Jahon savdo tashkiloti (WTO) kabi tuzilmalar doirasida ikki va ko'p tomonlama formatlarga asoslangan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. "Abu-Dabi muloqoti" nomi bilan mashhur bo'lgan migratsiyaga oid xalqaro tashkilot faoliyati ham yuqoridagilarga misol bo'la oladi. Mintaqa davlatlarining migratsion jarayonlarni tartibga solish borasidagi o'zaro hamkorlikka asoslangan faoliyati: mehnat bozori bilan bog'liq bilimlarni takomillashtirish va tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish, ishchilarning pul o'tkazmalari va pul oqimlari siyosatini yo'lga qo'yish hamda mehnat muhojirlari uchun maxsus pul siyosatini yuritish; ishchi kuchi hamda ish beruvchilar o'rtasidagi talab va taklifni o'zaro muvofiqlashtirish maqsadida salohiyatni oshirib borish; noqonuniy tarzda ishga yollashning oldini olish hamda shartnoma asosida faoliyat yurituvchi muhojirlarning manfaatlarini himoya qilish; donor davlat va qabul qiluvchi davlat o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mehnatga oid masalalarni boshqarishga doir kompleks yondashuvlarni ishlab chiqish kabi masalalar yechimiga yo'naltirilgan. Garchand, yuqoridagi tuzilmalar faoliyati doirasida migratsion

---

<sup>33</sup> Цели в области устойчивого развития ООН. // URL.: <https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/sustainable-development-goals/>

jarayonlarni tartibga solish masalasi kun tartibidagi dolzarb vazifalardan biri sifatida o‘rin olgan bo‘lsada, muammoning yechimi yuzasidan yagona yondashuvning mavjud emasligi, amalda ijobiy natijalarga erishish imkonini cheklaydi. Shunga ko‘ra, yuqorida nomlari keltirilgan davlatlararo tuzilmalar tomonidan migratsion jarayonlarni tartibga solish va davlatlarning bu boradagi siyosatini muvofiqlashtirish yuzasidan yagona strategiyani ishlab chiqish talab etiladi.

Globalashuv sharoitida tahdidlarning transmilliy xususiyat kasb etishi hamda xavfsizlikning yaxlit va uzviy ekanligi borasidagi qarashlardan kelib chiqqan holda, Yaqin Sharqdagi siyosiy voqe‘likning Markaziy Osiyoga nisbatan bevosita ta‘sir ko‘rsatishi va ularning o‘zaro aloqador ekanligini inkor etib bo‘lmaydi. Markaziy Osiyo mintaqasi geostrategik ahamiyatining muhim jihatlaridan biri, uning Yaqin Sharq mintaqasi bilan bevosita chegaradosh ekanligi bilan belgilanadi. Global va mintaqaviy miqyosdagi siyosiy jarayonlarning o‘zgaruvchanligi sharoitida Markaziy Osiyoda davlatlari o‘rtasida o‘zaro muvofiqlashtirilgan va yaqin hamkorlikka asoslangan qarorlarni ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi. Zero, shu yo‘l bilan migratsion, chegara va hudud, suv-energetika, transport-kommunikatsiya muammolariga yechim topish mumkin. Bu borada mintaqa davlatlari o‘rtasidagi uzoq yillik tarix, qadriyat va an‘analarning o‘zaro uzviy bog‘liqligini va mavjud omil migratsion jarayonlarni tartibga solishda ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini unutmashimiz lozim.

## XULOSA

“Yaqin Sharqdagi migratsion jarayonlarning arab davlatlari xavfsizligi va barqarorligiga ta‘siri” mavzusi yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

**Birinchidan**, migratsiya bu kishilarning muayyan sabablarga ko‘ra, bir martalik asosda yoki muntazam ravishda doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyini o‘zgartirish maqsadida, davlat chegaralari bo‘ylab hududiy ko‘chishlari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos murakkab jarayondir. Ushbu jarayonni jug‘rofiy belgilari, amal qilish muddati, ixtiyoriyligi, boshqarilish darajasi, kelib chiqish sabablari hamda ko‘chishlarning qonuniy asoslarga ega ekanligi nuqtai nazaridan tasniflash mumkin. Bugungi kunda, noqonuniy migratsiya xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashga to‘sqinlik qiluvchi muhim omillardan biri sifatida o‘zini namoyon qilmoqda.

**Ikkinchidan**, migratsiya va xavfsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlikka oid tadqiqotlar orasida Kopengagen xavfsizlik maktabi nisbatan muvaffaqiyatga erishgan bo‘lsada, bu borada aniq, izchil va keng qamrovli nazariy asoslar to‘laqonli ishlab chiqilmagan. Ayni paytda, migratsiyani xavfsizlikka nisbatan tahdid sifatida o‘rganishda sivilizatsion yondashuv nisbatan ustuvorlik kasb etmoqda. Zero, bugungi kunda rivojlangan jamiyatlar va immigrantlar o‘rtasidagi muammolar, aynan sivilizatsion tafovutlar fonida yuz bermoqda. Beqarorlik, ayirmachilik va terroristik harakatlarning faollashuvi kabi omillar, jamiyatda migrantofobiyani shakllantirmoqda, bu esa, hukumatlarni migratsiya sekyuritizatsiyasi masalasiga kengroq jalb qilish zaruratini kuchaytirmoqda. Migratsiya va xavfsizlikning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash va

tahdidlar ko‘lamini baholashda, “donor davlat – migrant – resepiyent davlat” formati doirasida tadqiq etish maqsadga muvofiq.

**Uchinchi**dan, migratsiyani to‘laqonli tarzda xavfsizlikka tahdid sifatida baholab bo‘lmaydi. Zero, mavjud yondashuv bir tomonlamalik xususiyatga ega bo‘lib, uni to‘g‘ri yondashuv, deb bo‘lmaydi. Tahlillar migratsion jarayonlarni tartibga solishda, muammoni hal qilishga doir kompleks yondashuv talab etilishini ko‘rsatmoqda. Shu boisdan, migratsiyani davlat tomonidan tartibga solishning mukammal tizimi va huquqiy asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

**To‘rtinchi**dan, Yaqin Sharq mintaqasida migrantlardan iborat yirik oqimlarning paydo bo‘lishi va migratsion jarayonlarning kechishiga ta‘sir qiluvchi omillarni, nizolar va iqtisodiy omillardan iborat bo‘lgan ikki guruhga ajratish mumkin. Yaqin Sharqda kechayotgan Iroq, Suriya, Liviya va Yaman kabi davlatlar misolidagi mintaqaviy nizolar ommaviy migratsiya va qochoqlar oqimining shakllanishiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatayotgan bo‘lsada, ular siyosiy, iqtisodiy, diniy, hududiy va geosiyosiy manfaatlar bilan xarakterlanishini alohida ta‘kidlash joiz. Nizolarning o‘ziga xos murakkab va kompleks xususiyatga ega ekanini hisobga olgan holda, ularni mintaqaviy xususiyatlar orqaligina baholab bo‘lmaydi. Ma‘lumki, iqtisodiy omillar nafaqat Yaqin Sharq, balki dunyo miqyosidagi migratsiyaning asosiy drayveri hisoblanadi. Shunga ko‘ra, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika arab davlatlarini ikki qismga, ya‘ni neftga boy, iqtisodiy jihatdan farovon bo‘lgan mezbonlik qiluvchi Fors ko‘rfazi monarxiyalari hamda iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari nisbatan past bo‘lgan, ammo inson resurslariga boy bo‘lgan donor davlatlarga ajralib qolganligini ko‘rish mumkin.

**Beshinchi**dan, Yaqin Sharq mintaqasining o‘ziga xos jihati, muhojirlarning mahalliy aholi soniga nisbatan ustunlikka ega ekanligi bilan belgilanadi. Bu esa, mintaqadan xalqaro migratsion oqimlarning harakatlanish tendensiyalarini kuzatishda maydon sifatida foydalanish imkonini beradi. Iqtisodiy migratsiya va majburiy ko‘chishlar, mintaqada yuqori darajada integratsiyalashgan hududiy mehnat bozorining shakllanishiga xizmat qilgan. Shunga ko‘ra, mintaqada davlatlarining ijtimoiy-siyosiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni baholashda, ular donor (masalan, Misr va Yaman), resepiyent (neftga boy bo‘lgan Fors Ko‘rfazi arab davlatlari) hamda tranzit (Liviya va Turkiya) davlatlardan iborat uch guruhga ajratildi. Mintaqada davlatlarining xususiyati, ularning eng rivojlangan va shu bilan birga qashshoq davlatlarni o‘z ichiga qamrab olgani bilan belgilanadi. Fors ko‘rfazi arab davlatlari, Mag‘rib, Mashriq hamda iqtisodiy jihatdan zaif bo‘lgan arab davlatlaridan iborat bo‘lgan submintaqalardagi migrant va qochoqlarning hududlar bo‘ylab taqsimotida ham ko‘plab tavofutlar mavjud. Migrant va qochoqlarning  $\frac{3}{4}$  qismini o‘z ichiga qamrab olgan Arab monarxiyalaridagi mahalliy aholi bandligi, asosan davlat sektorida, xorijliklarning bandligi esa, avvalo xususiy sektorda ta‘minlanganligi bilan xarakterlanuvchi ikki tomonlama mehnat bozori shakllanganligini ko‘rish mumkin.

**Oltinchi**dan, Fors Ko‘rfazi arab davlatlaridagi liberal mehnat migratsiyasi siyosati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, u xususiy sektor rahbarlariga ish haqi va mehnat sharoitlarini belgilash borasida erkinlik taqdim etadi. Hanuzgacha saqlanib qolayotgan mazkur siyosat, xorijlik ishchilarning katta qismiga mahalliy

ishchilarning o'rtacha oylik ish haqidan ancha past bo'lgan miqdorda maosh tayinlash imkonini beradi. Neft hisobidan olingan daromad tor doiradagi shaxslar qo'lida to'planuvchi mazkur davlatlarda demokratik qadriyatlarning yemirilishi kuzatilgani bois, ularni demokratik davlat sifatida baholab bo'lmaydi. Albatta, Yaqin Sharqdagi mintaqaviy integratsiyani Yevropa va Amerika kabi boshqa davlat modellari bilan solishtirib bo'lmaydi. Bu, avvalo, mintaqa davlatlari o'rtasida rasmiy yoki norasmiy tarzda tartibga solinadigan ishchi kuchining almashinuvi bilan bog'liq.

**Yettinchidan,** global ta'sir ko'rsatish xususiyatini namoyon qilib kelayotgan, Osiyoni Afrika va Yevropa bilan bog'lovchi ko'prik vazifasini o'taydigan, dunyoning uch asosiy dini uchun markaz hisoblangan, tarkibiy jihatdan turli etnik va konfessional rang-baranglikka ega hamda tabiiy resurslarga boy bo'lgan Yaqin Sharq mintaqasidagi geosiyosiy jarayonlar, muayyan hududlarni qo'lga kiritish, tabiiy resurslarga bo'lgan nazoratni o'z qo'lga olish, ichki nizolarni keltirib chiqarish yo'li bilan, mavjud siyosiy tizimlarni o'zgartirish, etnik hamda diniy-konfessional xarakterdagi mojarolarni avj oldirish kabilar bilan bog'liq holda kechayotganini ko'rish mumkin. Bularning bari, ichki va tashqi kuchlarning geosiyosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun qulay muhit yaratmoqda. Yaqin Sharq mintaqasi o'zining jahondagi muhim geostrategik ahamiyatidan tashqari, nizolarga boy hudud sifatidagi maqomga ham ega. Bu esa, global migratsiya muammosini vujudga keltirmoqda. Tabiiyki, tashqi kuchlar ta'siri ostida davlatlar o'rtasidagi ichki mintaqaviy raqobat muhiti shakllanib, u Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq davlatlarida turlicha namoyon bo'ldi. Shunga ko'ra, biz ularni ikki guruhga ajratishimiz mumkin bo'ladi, ya'ni "Arab bahori" voqealaridan so'ng, siyosiy hayotida tub o'zgarishlarni boshdan kechirayotgan Tunis, Misr, Yaman, Bahrayn, Liviya va Suriya kabi davlatlar guruhi hamda "Arab bahori" qisman ta'sir ko'rsatgan Marokash, Iordaniya, Livan, Jazoir, Quvayt, Saudiya Arabistoni, Sudan va O'mon kabi davlatlar guruhi shular jumlasidandir. "Arab bahori" voqealari ta'sirida, Yaqin Sharq mintaqasi davlatlaridagi modernizatsiya jarayoni bilan bir qatorda, inqirozlar ham kuzatilmoqda. Shu bois, Yaqin Sharq davlatlarining yaqin yillar ichidagi kelajagini tahmin qilish murakkab jarayon sanalib, u geosiyosiy jarayonlarda faol ishtirok etayotgan barcha tomonlarning o'zaro manfaatlarini aniq belgilab olishiga bog'liq.

**Sakkizinchidan,** Yaqin Sharqdagi nizoli markazlardagi migratsion jarayonlar va ularning mintaqaviy xavfsizlikka ta'siri o'zini turlicha namoyon qilmoqda. Jumladan, "Arab bahori"ning to'lqini ostida *Suriyada* yuzaga kelgan nizoli vaziyatlar tahlili, uning mavsumiy qurg'oqchilik va davlat iqtisodiyotining barqaror pasayishi bilan xarakterlanganini ko'rsatib berdi. Uzoq yillik beqarorlik ortidan Suriyada yuzaga kelgan migratsion vaziyat, o'z ko'lamiga ko'ra, dunyo miqyosidagi eng yuqori pog'onani egalladi. Ayni paytda, u nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro xavfsizlik nuqtai nazaridan ham keng jamoatchilik, xususan Yevropa davlatlari e'tiboridan muhim o'rin egallagan. Mazhablararo va etnik ziddiyatlar, uzoq yillik diktatura, uzluksiz mojarolar, tashqi kuchlarning aralashuvi va ISHIDga qarshi urushlar *Iroqdagi* ko'psonli ko'chishlarga sabab bo'lgan bo'lib, ularning aksariyat qismini ichki migratsiya tashkil etgan. Hukumat tomonidan mavjud muammoning yechimiga qaratilgan ko'plab sa'y-harakatlarga qaramay, byudjetdagi taqchillik bu boradagi imkoniyatlarni cheklab, mavjud vaziyatni yanada murakkablashtirmoqda. *Yamandagi*

ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy keskinlik va bo‘linishlar aholi orasida ichki ko‘chishlarni keltirib chiqargan. Bunda, davlat hududini tark etish istagidagilar ko‘pchilikni tashkil etsada, ulardagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tanglik va jismoniy zo‘riqishlar bunga imkon bermagan. *Falastinda* kuzatilgan eng uzoq muddatli migratsion jarayonlar, Isroil va Falastin o‘rtasidagi nizoli vaziyat, Isroil tomonidan noqonuniy tarzda aholi punktlarining qo‘lga kiritilishi, vayronagarchilik, ta‘qib va harbiy zo‘ravonliklar natijasida yuzaga kelgan murakkab gumanitar inqiroz bilan xarakterlanadi.

**To‘qqizinchidan,** Yaqin Sharq mintaqasining ko‘psonli muhojirlarni qabul qiluvchi arab davlatlari tomonidan yuritilayotgan migratsion siyosat, muhojirlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta‘sirini kamaytirishga qaratilgan. Shu maqsadda, uzoq yillar davomida “kafala” tizimidan foydalanib kelinmoqda. Ammo, keyingi yillarda jahon hamjamiyati tomonidan inson huquqlarining poymol etilishi bilan bog‘liq holatlarga yo‘l qo‘yilgani borasidagi keskin qarashlarning kuchayib borishi ortida, Qatar, BAA va Saudiya Arabistoni kabi Fors ko‘rfazi arab davlatlarida mazkur tizimdan voz kechilishi yuzasidan rasmiy ma‘lumotlar ilgari surilmoqda. *SAP*ning Vision-2030 dasturi doirasida migratsiyaga iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, neft eksportiga bo‘lgan qaramlikni kamaytirish hamda ishsizlik darajasining o‘shishiga qarshi kurashning moliyaviy manbai sifatida qaralsada, uning mehnat bozoriga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi borasidagi qarashlar ham uchraydi. *BAA*da migratsion jarayonlarni tartibga solish maqsadida, mehnat bozoriga oid bilimlarni takomillashtirish va tajriba almashinuvini yo‘lga qo‘yish, mehnat muhojirlari uchun maxsus pul siyosatini yuritish, ishchi kuchi hamda ish beruvchilar o‘rtasidagi talab va taklifni o‘zaro muvofiqlashtirish, noqonuniy tarzda ishga yollashning oldini olish hamda shartnoma asosida faoliyat yurituvchi muhojirlarning manfaatlarini himoya qilish hamda donor va resepiyent davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga doir kompleks yondashuvlardan iborat bo‘lgan islohotlar yo‘lga qo‘yilgan. *Qatar*ning ijtimoiy hayotida muhojirlarning faolligi kuzatilishi ortida, milliy xavfsizlikka bo‘lgan tahdid ham ortib bormoqda. Mavjud xatarlarning oldini olish maqsadida, fuqarolarni milliy qadriyatlar ruxida tarbiyalash hamda xorijliklardan iborat ishchi kuchiga bo‘lgan qaramlikni kamaytirish, ya‘ni ishchi kuchini “qatarlashtirish”ni maqsad qilgan ta‘lim islohoti kabi bir qator loyihalar ilgari surilmoqda. *Bahrayn* hukumati tomonidan bu borada muhojirlarning turmush darajasini oshirishga yo‘naltirilgan “Bahraynlashtirish” dasturi ishlab chiqilgan bo‘lib, bunda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish uchun ruxsatnoma va vizalar berishni yanada faollashtirish ko‘zda tutilgan. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, global tus olgan migratsiya muammosiga qarshi kurash masalasini yakka tartibda hal etib bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, bu borada xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish talab etiladi. Tadqiqot davomida, muhojirlarni qabul qiluvchi va yuboruvchi Yaqin Sharq davlatlarida, muhojirlarning radikallasuvi hamda mintaqa davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarga migratsiya vositasida ta‘sir o‘tkazish holatlarining mavjudligi bilan bog‘liq xavotirlar saqlanib qolayotgani aniqlangan.

**O‘ninchidan,** FKADHKga a‘zo davlatlar dunyodagi yagona resepiyent davlatlar sirasiga kirmasada, mazkur davlatlarda mehnat resurslarini jalb qilishning o‘ziga xos noyob tizimi shakllanganligini tan olmay iloji yo‘q. Buni, Yaqin Sharq mintaqasi davlatlaridagi xorijlik ishchi va mutaxassislarining maqomi misolida ham

ko'rish mumkin. So'nggi yillarda Arab monarxiyalari, xususan Bahraynda boshqa arab davlatlari aholisiga fuqarolik berish amaliyoti qo'llanib kelayotgan bo'lsada u vaqtinchalik xarakterga ega. Shunga ko'ra, FKADHKga a'zo davlatlardagi xorijlik ishchilar haqida so'z borganda, "ekspatlar" atamasini qo'llashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Mahalliy aholi va muhojirlar o'rtasida o'zaro millatchilik kayfiyatining kuchayishi, adolatsiz raqobat muhiti, migrantlarga nisbatan mehnat bozorini o'zlashtirish borasidagi ayblovlarning qo'yilishi hamda muhojirlar ishtirokidagi jinoyatlar ko'laming ortishi migratsiyaga oid davlat siyosatiga bo'lgan ishonchsizlik kayfiyatini oshirmoqda. Migratsion vaziyatni tartibga solish maqsadida bir qator qonun hujjatlari qabul qilinib, tegishli nazorat organlarini tashkil etilganiga qaramay, mavjud vaziyatni qoniqarli deb bo'lmaydi.

**O'n birinchidan,** Yaqin Sharqdagi migratsion jarayonlarni tartibga solish borasidagi hamkorlik ikki va ko'p tomonlama formatlarga asoslangan. Buni FKADHK, ADL, IHT, Umumarab erkin savdo hududi, BMT G'arbiy Osiyo bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi, Neftni eksport qiluvchi arab davlatlari tashkiloti (OAPEC), Tariflar va savdo bo'yicha Bosh kelishuvi (GATT), Jahon savdo tashkiloti (WTO) kabilarning faoliyati misolida ko'rish mumkin. Mazkur tashkilotlarning bu boradagi faoliyatining asosini migratsion jarayonlardan ijobiy omil sifatida foydalanish hamda BRM maqsadlarini amaliyotga tatbiq etish maqsadida, arab davlatlarining keng qamrovli va integratsiyalashgan strategiyasini ishlab chiqish, tizimli ravishda migratsiya masalalariga bag'ishlangan mintaqaviy va xalqaro muzokaralarni tashkil etish, shuningdek, mazkur davlatlar o'rtasidagi hamkorlik aloqalarining yangi sahifasini ochish kabilar tashkil etadi. Ammo, mazkur tuzilmalar faoliyati doirasida migratsion jarayonlarni tartibga solish masalasi kun tartibidagi dolzarb vazifalardan biri sifatida o'rin olgan bo'lsada, bu borada yakdil yondashuvning mavjud emasligi, amaliy natijalarga erishish imkonini bermaydi. Shu boisdan, davlatlararo tuzilmalar tomonidan migratsion jarayonlarni tartibga solish yuzasidan o'zaro muvofiqlashtirilgan strategiyani ishlab chiqish talab etiladi.

**O'n ikkinchidan,** Yaqin Sharqdagi migratsion jarayonlarning Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligi va barqarorligiga ta'siri, avvalo, ularing geografik jihatdan o'zaro chegaradosh ekanligi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, globallashtirish sharoitida beqaror vaziyatni keltirib chiqaruvchi omillar transmilliy xususiyat kasb etishi mumkinligi borasidagi xulosaga kelish mumkin. Shu boisdan, Markaziy Osiyo mintaqasi Yaqin Sharqda kuzatilayotgan beqaror vaziyatning salbiy oqibatlar va ta'siridan himoyalanganligi yuzasidan fikr bildirib bo'lmaydi. Xorijiy davlatlarda faoliyat yuritayotgan mehnat muhojirlari va O'zbekiston hukumati o'rtasidagi aloqalarning to'laqonli yo'lga qo'yilmaganligi va bu boradagi mavjud kamchiliklar, xorijdagi malakasiz migrantlarning turli diniy tashkilotlar tarkibiga kirib qolishi va ularning Yaqin Sharqdagi nizo markazlariga "islom dinini himoya qilish" g'oyasi ta'sirida ko'chib o'tayotganligiga sabab bo'layotganini ko'rish mumkin. Markaziy Osiyoning Afg'oniston bilan bevosita chegaradoshligi, shuningdek, Yaqin Sharqdagi turli ekstremistik harakatlarning beqaror bo'lgan Afg'onistonga to'g'ridan-to'g'ri ko'chib o'tishi, turli millatlar, xususan, Markaziy Osiyolik yollanma jangarilarning Al-Qoida va ISHID kabi terroristik tashkilotlar faoliyatiga kirib qolishiga sabab bo'lmoqda. Yaqin Sharqdagi nizoli hududlar, xususan, Suriyadagi harbiy

harakatlarda faol ishtirok etgan Markaziy Osiyo davlatlari fuqarolarning turli yo‘llar bilan o‘z Vatanlariga qaytishi va ularning maqsadlari to‘liq oshkor etilmasligi kabilar mintaqamiz xavfsizligi va barqarorligini xavf ostida qoldirishi tabiiy.

Amalga oshirilgan tadqiqot xulosalari asosida xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashning muhim omili sifatida O‘zbekiston Respublikasining migratsiya sohasidagi siyosatini takomillashtirish yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalarni bildirish mumkin:

- O‘zbekiston Respublikasining xorijda mehnat qilayotgan fuqarolari huquq va manfaatlarini himoya qilish, mehnat sharoitlarini yaxshilash hamda ularning shaxsiy va mehnat xavfsizligini ta‘minlash ishlari samaradorligini oshirish maqsadida, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi vakolatlarini kengaytirish, xorijda mehnat faoliyatini yuritishning huquqiy asoslari takomillashtirish, shuningdek, noqonuniy migratsiyani tartibga solish imkonini beruvchi “Tashqi mehnat migratsiyasi to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilish;

- tashqi mehnat migratsiya bozorini muntazam ravishda diversifikatsiyalash hamda muayyan resepiyent davlatlar tomonidan migrantlardan siyosiy bosim sifatida foylanishining oldini olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining tashqi mehnat sohasidagi vakolatlarini yanada kengaytirish;

- O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligida akkreditatsiyadan o‘tish asosida, xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ketayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining kasbiy malakasi va xorijiy tillarni bilish darajasini tasdiqlash bilan bir qatorda, ularning yuborilayotgan davlatning an‘ana va qadriyatlarini, ularning mentaliteti hamda qonunchiliga oid bilimlarini baholash huquqini ham kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shunga ko‘ra, migrantlarni kasbga yo‘naltirish, xorijiy tillarni o‘rgatish hamda yuborilayotgan davlat qonunchiligi va madaniy qadriyatlarini bilan yaqindan tanishtirish imkonini beruvchi maxsus o‘quv kurslari faoliyatini takomillashtirish hamda institutsional asoslarini mustahkamlash va bu borada xususiy sektor ulushini oshirish;

- O‘zbekistondagi migratsion jarayonlarni tartibga solish, boshqarish hamda xalqaro hamkorlik doirasida “migratsiya diplomatiyasi”dan foydalanish maqsadida sohaga oid bo‘lgan ishonchli ma‘lumotlarni to‘plash, tarqatish va tahlil qilish bo‘yicha yagona raqamlashtirilgan ma‘lumotlar baza (Date base)sini shakllantirish va bu borada hukumat vakolatlarini yanada kengaytirish, shuningdek, ilmiy doiralarni ham jalb qilgan holda institutsional salohiyatni oshirish;

- “Aqliy ko‘chishlar”ning O‘zbekiston iqtisodiyoti va ijtimoiy-siyosiy rivojiga bo‘lgan salbiy ta‘sirini muntazam ravishda tahlil qilish va baholab borish tizimini shakllantirish hamda O‘zbekistonda ilmiy salohiyatli kadrlarni saqlab qolish va ularga qulay shart-sharoitlar yaratish siyosatini tizimli ravishda tashkil etish maqsadga muvofiq. Xorijdagi vatandoshlarning O‘zbekistonga qaytishi uchun qulay sharoitlar yaratish, ular bilan aloqalarni mustahkamlab borish hamda xorijdagi vatandoshlarning ilmiy-amaliy tajriba va ko‘nikmalarida O‘zbekiston taraqqiyoti yo‘lida foydalanish mehanizmlarini takomillashtirib borish;

- noqonuniy mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq jiddiy muammolardan biri, migrantlarning turli ekstremistik guruhlar ta‘siriga tushib qolayotgani bilan bog‘liq. Ming afsuski, moddiy imkoniyatlarini yaxshilash maqsadida turli davlatlarga tashrif buyurgan o‘zbek migrantlari orasida Yaqin Sharqdagi nizoli markazlar, xususan, Suriyadagi terroristik harakatlarga qo‘shilib qolish holatlari tez-tez uchramoqda. Migrantlar radikallashuvining jiddiy muammo ekanligi nuqtai nazaridan, xorijiy tajribani o‘rgangan holda O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita hamda O‘zbekiston Musulmonlar idorasi bilan hamkorlikda diniy soha mutaxassislarini jalb etgan holda, xorijdagi o‘zbek migrantlari joylashgan hududlarda diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi targ‘ibotlarini tizimli tashkil etish va uning ilmiy asoslarini yanada kengroq tadqiq etishni yo‘lga qo‘yish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
DSc/03/30.12.2021/Ss/Tar.21.02 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**  

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

**МАДАМИНОВА ДУРДОНА ИСКАНДАРОВНА**

**ВЛИЯНИЕ МИГРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ НА  
БЕЗОПАСНОСТЬ И СТАБИЛЬНОСТЬ АРАБСКИХ  
СТРАН БЛИЖНЕГО ВОСТОКА**

**23.00.02 – Политические институты, процессы и технологии**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора политических наук (DSc)**

**Ташкент – 2023**

**Тема диссертации доктора наук (DSc) по политическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за B2020.2.PhD/Ss32.**

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете востоковедения.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.tsuos.uz](http://www.tsuos.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziynet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный консультант:** **Ёвкочев Шухрат Акмалевич**  
доктор политических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Маврулов Абдухалил Абдулхаевич**  
доктор исторических наук, профессор

**Мухаммадсидиков Мухаммадолим Мухаммадрозиқ угли**  
доктор политических наук, профессор

**Жалилов Ақтам Ташназарович**  
доктор политических наук, профессор

**Ведущая организация:** **Международная исламская академия Узбекистана**

Защита диссертации состоится «\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года в \_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/29.12.2022.Ss/Tar.21.02 при Ташкентском государственном университете востоковедения (Адрес: 100060, г. Ташкент, улица Амира Темура, дом 20. Тел.: (99871) 233-34-24; факс: (998971) 233-52-24; e-mail: [sharq\\_ilmiy@mail.ru](mailto:sharq_ilmiy@mail.ru)).

С диссертацией (DSc) можно ознакомиться на Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета востоковедения (зарегистрирована под № \_\_\_\_). Адрес: 100060, г. Ташкент, улица Амира Темура, дом 20. Тел.: (99871) 233-45-21.

Автореферат диссертации разослан «\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 г.

(протокол реестра рассылки № \_\_ от «\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 г.)

**Д.Б. Сайфуллаев**

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор

**О.И. Алимов**

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по политическим наукам (PhD), доцент

**Э.С. Султанова**

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор политических наук, профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации)

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Сложности связанные с углублением процессов глобализации происходящих в мире, а также взаимозависимость социально-экономических и политических процессов на национальном, региональном и международном уровнях значительно влияют на сущность миграции и на темпы роста миграционных процессов. «Миграция – это позитивное глобальное явление. Миграционные процессы стимулируют экономический рост, уменьшают неравенство, связывают различные части общества и помогают преодолеть демографические волны связанные с ростом и сокращением населения. Кроме того, данное явление, также является результатом политических тенденций и человеческой трагедии»<sup>1</sup>. Отдельно следует отметить, что миграционные процессы в арабских странах Ближнего Востока по-своему проявляются как негативный фактор региональной безопасности. На данный момент, проблема миграционной секьюритизации, связанной с вопросами безопасности и стабильности арабских стран Ближнего Востока требует особого внимания в качестве одной из актуальных задач.

В связи с выходом миграционных потоков стран Ближнего Востока за рамки региональной принадлежности на глобальный уровень, включая уникальное участие в постепенном развитии Европы, уделяется особое внимание исследованиям данных процессов в качестве неотъемлемой части социально-экономического и политического развития данного региона. В связи с этим, на основе комплексного междисциплинарного подхода уделяется особое внимание исследованиям научных тематик, посвященных вопросам миграции, таких как миграция безопасности, цифровая миграция, климатическая миграция, туристическая миграция, а также миграционным процессам в арабских странах Ближнего Востока, направленных на совершенствование научно-методологических основ межгосударственного, межорганизационного и межотраслевого подходов наряду с такими секторами, как миграция населения, трудовая миграция и образовательная миграция.

В процессе строительства нового Узбекистана реализуются комплексные, программные меры направленные на стимулирование миграционных потоков, эффективной организации миграционной политики с учетом передового мирового опыта упорядоченным и научно обоснованным образом на основе национального стратегического развития, а также в качестве члена Международной организации по миграции (МОМ) для поддержке лиц, осуществляющих трудовую деятельность за рубежом, а также защиту их прав и интересов. «Эти задачи, направленные на решение проблем трудовых мигрантов, всеми государственными органами, должностными лицами и институтами гражданского общества должны рассматриваться в качестве важнейших вопросов социально-экономического развития Узбекистана,

---

<sup>1</sup> Migration ‘Positive Global Phenomenon’ that Powers Economic Growth, Reduces Inequalities, Says Secretary-General at Report Launch | UN Press. <https://press.un.org/en/2018/sgsm18852.doc.htm>

которые ждут своего решения с точки зрения сегодняшнего дня и будущего»<sup>2</sup>. Эти задачи определяют актуальность исследований в области изучения региональных миграционных процессов и их влияния на безопасность и стабильность данных стран региона.

Данная научно-исследовательская работа в определенной мере послужит реализации поставленных целей и задач, определенных в указах Президента Республики Узбекистан «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» (28 января 2022 года № УП-60) (цель 83), «О мерах по кардинальному совершенствованию системы подготовки кадров и повышению научного потенциала в области востоковедения» (16 апреля 2020 года № ПП-4680) (пункт 13), «О мерах по внедрению системы безопасной, упорядоченной и легальной трудовой миграции» (15 сентября 2020 г. № ПП-4829), «О дополнительных мерах по поддержке граждан Республики Узбекистан, осуществляющих временную трудовую деятельность за рубежом, и членов их семей» (1 марта 2022 г. № ПП-149), а также в ряде нормативно-правовых документах, касающихся данной сферы.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан.** Настоящее исследование проводилось в рамках программы научно-технического развития республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

### **Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации<sup>3</sup>.**

На сегодняшний день ведущими мировыми научными центрами в рамках нескольких программ и проектов проводятся исследования направленные на выявление причин и последствий миграционных процессов на ближневосточном регионе. В частности, Международной организацией по миграции действующей в качестве специализированного органа ООН (The International Organization for Migration (IOM)), а также ведущими научными центрами, как Центр иммиграционных исследований (Center for Immigration Studies), Центр миграционных исследований в Нью-Йорке (Center for Migration Studies of New York), Институт миграционной политики (Migration Policy Institute), Центр иммиграционной политики (The Immigration Policy Center - IPC), Международный миграционный центр (The Global Migration Centre - GMC), The Center for Middle Eastern Studies (ORSAM), Центр ближневосточных исследований (The Middle East Institute - MEI), Научно-исследовательский

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2021. – Б.450.

<sup>3</sup> Обзор научных исследований по теме диссертации подготовлен на основе <http://rcit.su/inform-cn-mz-03.html>; <http://rcit.su/inform-cn-mz-01.html>; <http://rcit.su/inform-cn-mz-00.html>; <http://rcit.su/inform-cn-mz-04.html>; <http://rcit.su/inform-cn-mz-05.html>; <https://review.uz/post/kitayskiy-vektor-uzbekskoy-ekonomiki>; <https://www.centraleurasia.org>; <https://www.csis.org/regions/russia-and-eurasia/central-asia>; <https://www.auca.kg/>; <http://www.cccar.hu/>; <https://erccs.hypotheses.org/>; <https://www.rug.nl/research/eastasianstudies>; <https://www.icsin.org/universities/>; [https://www.aichi-u.ac.jp/english/education/rc\\_iccs](https://www.aichi-u.ac.jp/english/education/rc_iccs); <http://chinesestudies.eu/?p=95>; <https://www.sydney.edu.au/china-studies-centre/>; <https://hjas.org>; <https://journals.univie.ac.at/index.php/jeacs/about>; <https://journals.sagepub.com/toc/mex/current>; <https://www.cambridge.org/core/journals/china-quarterly> и других источников.

центр “Маддад” (“Маддад” - Марказ лилабхас вад дирасаат), а также Центр политических и стратегических исследований Аль-Ахрам (Al-Ahram Center for Political and Strategic Studies - ACPSS) проводятся исследования по изучению миграционных процессов.

